

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o'quv dasturlari

1. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchilari	15 bet
2. Umumiy o'rta ta'lim maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari	12 bet
3. Maktab ta'limi tashkilotlari rahbar xodimlari	14 bet
4. Pedagogika markazlari professor-o'qituvchilari	12 bet
5. Pedagogik markazlari metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlari	14 bet
6. Umumta'lim maktab kutubxona rahbar va xodimlari	10 bet
7. Barkamol avlod bolalar maktabi to'garak rahbarlari	12 bet
8. Maxsus maktab internatlari ("muruvvat" uylari) tarbiyachilari	13 bet
9. Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilari	10 bet
10. O'qituvchi-logopedlar	9 bet
11. Umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotchi psixologlari	16 bet

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QITUVCHILARINI
TABAQALASHTIRILGAN UZLUKSIZ KASBIY
RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

(Tajriba-sinov tariqasida)

TOSHKENT – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

**Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarini tabaqalashtirilgan uzluksiz
kasbiy rivojlantirish kursi**

NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Tuzuvchilar A. Ismailov, M. Ergasheva, M. Abdullayeva, I. Xurramov,
D. Azamatova, A. Gaffarov

Taqrizchilar Islam Hassan Mahmoud *A. Avloniy nomidagi milliy-
Hassan Elhadary tadqiqot instituti rektorining xorijiy
maslahatchisi*

Sh. Abdullayeva *Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universitetining tillar
fakulteti dekani, p.f.d., professor*

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarini tabaqalashtirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi navbatdan tashqari yig‘ilishi 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarining kasbiy standartlari asosida pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug'i asosida o'tkazilgan diagnostik test natijalariga ko'ra, o'quv fanlarining nazariyasi va amaliyoti uyg'unligini ta'minlash, ta'limdagi ilg'or yutuqlarni o'rganish, inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabat, o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish: 4K – tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Shuningdek, o'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Umumiy oʻrta taʼlim maktab oʻqituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi namunaviy oʻquv dasturi, umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchilari kasbiy standartida belgilangan kompetensiyalar va diagnostik test natijalari asosida IV tabaqada shakllantirilgan tayanch oʻquv rejasining 2 ta blok tarkibidagi quyidagi 8 ta oʻquv modullar mazmunini oʻz ichiga oladi:

I. Taʼlim va tarbiya jarayonini tashkil etish.

- 1.1. Tarbiya metodikasi asoslari;
- 1.2. Taʼlimda ilgʻor xorijiy tajribalar;
- 1.3. Taʼlimda raqamli texnologiyalar;
- 1.4. Inklyuziv taʼlim asoslari.

II. Mutaxassislik fanlari.

- 2.1. Mutaxassislik fanlari nazariy-amaliy asoslari;
- 2.2. Oʻqitishning zamonaviy texnologiyalari;
- 2.3. 4K koʻnikmalarini shakllantirish metodikasi;
- 2.4. Tanlov fanlar.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi – taʼlim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifasi – tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va taʼlim-tarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil etishning metodologik asoslarini singdirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, koʻnikma, malaka va kompetensiyalariga qoʻyiladigan talablar – umumiy oʻrta taʼlim maktabi oʻqituvchisining kasb standarti asosida, tegishli yoʻnalish boʻyicha umumiy oʻrta taʼlim maktab pedagog kadrlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish mazmuni, sifati hamda oʻqituvchilarning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qoʻyiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining hajmi **144 soatni** tashkil etadi. Mazkur soatlar har bir tabaqa uchun **3 yillik** muddat kesimida quyidagicha taqsimlanadi.

I tabaqa taʼlim dasturi – kasbiy mahorati va bilim koʻrsatkichlari yuqori boʻlgan pedagog kadrlar uchun 3 yil davomida 108 soat soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil taʼlim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

II tabaqa ta’lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko’rsatkichlari yaxshi bo’lgan pedagog kadrlar uchun 72 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta’lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

III tabaqa ta’lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko’rsatkichlari qoniqarli bo’lgan pedagog kadrlar uchun uchun 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 72 soat soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta’lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

IV tabaqa ta’lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko’rsatkichlari past bo’lgan pedagog kadrlar uchun 108 soat soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil ta’lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

1.1. Tarbiya metodikasi asoslari

Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari. Tarbiya jarayonining xususiyatlari. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli. Tarbiyada huquqiy, axloqiy va odob me'yorlari hamda ularning mohiyati. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" konsepsiyasining o'rni va ahamiyati. Oila, mahalla va ta'lim muassasasining bola tarbiyasidagi o'rni. Yoshlarning ma'naviy va g'oyaviy tarbiyasidagi muammolar. Shaxsni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish tartibi, shakli va mazmuni. O'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari bo'yicha sinf rahbarining fan o'qituvchilari bilan hamkorlik ishlari. O'quvchilar xulqlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida nazoratga olish va ular bilan ishlash. O'quv jarayonlarini tahlil qilish. Sinf o'quvchilarning o'zaro hamda fan o'qituvchilari o'rtasidagi munosabatlarini nazoratga olish usul va vositalari.

O'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishi, bilim va qobiliyatini rivojlantirish. O'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish metodikasi. Qobiliyatli va iste'dodli o'quvchilarni rag'batlantirish va ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish, qiziqishlari bo'yicha fan va ijodiy to'garak mashg'ulotlaridagi ishtirokini ta'minlashda ota-onalar, turli tashkilot vakillari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish shakli, mazmuni va vositalari.

Sinf o'quvchilarining ehtiyoj va qiziqishlarini har tomonlama o'rganish, tahlil qilish, ularni ahil jamoaga jipslashtirish va tashabbuskor o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning samarali yo'llari. O'quvchilarga vaqtni to'g'ri taqsimlash va undan unumli foydalanishni o'rgatish usullari.

1.2. Ta'limda ilg'or xorijiy tajribalar

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muammolari va yechimlari. O'quv-metodik jarayonni tashkil etishda XXI asr o'qituvchining roli va funksiyalari.

Maktab ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, maktab ta'limi sifatini yaxshilash

va ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni (Singapur, Yaponiya, Finlandiya, Malayziya, Avstraliya), o'quvchilarning kompetentligini aniqlashga yo'naltirilgan xalqaro o'quv (STEAM, STREAM) va baholash dasturlari (PIRLS, PISA, TIMSS) asosida ta'lim samaradorligini nazorat qilish va baholash. Xalqaro ta'limiy va baholash dasturlarining ahamiyati.

O'quvchilar o'quv mashg'ulotlarida tajribalar o'tkazishi, modellarni konstruksiyalashi, musiqa va filmlarni mustaqil yaratishi, robotlar yasashi, ya'ni o'z g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishi va mahsulot yaratishi.

O'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi. Barqaror taraqqiyot ta'limi.

1.3. Ta'limda raqamli texnologiyalar

Raqamli texnologiyalar tushunchasi. Ta'limda raqamlashtirish. Ta'limning raqamli transformatsiyasi. Raqamli pedagogika. Raqamli didaktika. Raqamli darslik. Raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar – elektron doska, elektron jurnal, robototexnika.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga oid dasturiy mahsullar, internet resurslari va ma'lumotlar bazalari. Ta'lim muassasalarida multimedia ta'lim resurslaridan foydalanishning bugungi holati. Internet tarmog'idagi STEAM resurslaridan fanni o'qitishda foydalanish. Kasbiy faoliyatda sun'iy intellekt elementlaridan samarali foydalanish. IoT (internet of things) imkoniyatlari.

Bulutli texnologiyalar (Google, DropBox va boshqalar) va ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullari. Google Docs dasturiy mahsulotlari va ularning imkoniyatlari. Google ilovalari asosida matnli hujjatlar va elektron jadvallarni yaratish hamda birgalikda qayta ishlash. Google Drive va uning imkoniyatlari.

Pedagogik dasturiy vositalar. HotPotatoes, iSpring, Quizy maker dasturlari bilan ishlash. Camtasia studio, Bandicam, FCapture dasturlarida videodarslar tayyorlash. Prezi.com, visme.com, canva.com platformalarida taqdimotlar yaratish. Online test topshiriqlarini tayyorlash tizimlari (kahoot.com, quizizz.com, quizalize.com, learningapps.org, puzzlemaker.discoveryeducation.com va boshqalar).

Videokonferensaloqa va uning xususiyatlari. Videokonferensaloqani tashkil etish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlar va ularning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari. Google Meet va Zoom dasturiy mahsulotlarini o'rnatish, registratsiyadan o'tish, videoaloqani rejalashtirish va o'tkazish.

Kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirish, dars samaradorligini oshirishga oid AKT vositalari va Internet resurslar. Elektron pochtdan foydalanish. Mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan texnologiyalar. Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) orqali kasbiy mahoratni oshirish. Kasbiy faoliyatni

baholash bo'yicha dasturiy vositalardan maqsadli foydalanishning samarali yo'llari.

1.4. Inklyuziv ta'lim asoslari

Barqaror rivojlanish maqsadlariga asoslangan ta'lim. Inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar, ularning mazmun va mohiyati. Inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish, qabul qilish, nazorat qilish va boshqarish tartibi hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Inklyuziv ta'limni joriy qilish bosqichlari. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich tashkil etish jarayonlari, xorijiy va milliy tajriba. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda yuzaga keladigan muammo va yechimlar.

II. MUTAXASSISLIK FANLARI

2.1. Mutaxassislik fanlarining nazariy-amaliy asoslari

Mutaxassislik fani va ta'limning asosiy nazariyalari, ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali usul hamda vositalari. O'quvchilarning turli ta'limiy ehtiyojlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Yoshga doir pedagogika, psixologiya asoslari, bolalar bilan ishlash usul va metodlari. Ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarida hamda Milliy o'quv dasturida belgilangan o'quvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullarni amaliyotga tatbiq etishning samarali yo'llari. O'quv dasturining mazmuni mos keladigan samarali usullarini tanlash, interfaol metodlarni qo'llash. Pedagogik va psixologik bilimlardan foydalanib pedagogik vaziyat va hodisalarni kuzatib borish, ularni tahlil qilish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini fanga singdirish. Dars vaqtini oqilona rejalashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarni aniqlash. O'quv reja va davlat ta'lim standartlari, shuningdek, maktab ishi bilan bog'liq boshqa hujjatlar (ta'lim tizimining tuzilishi, maqsad-vazifalari, huquqiy asoslari va faoliyati).

O'quvchilarga metakognitiv strategiyani o'rgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan, rejalashtirish, nazorat qilish va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirish strategiyalaridan foydalanish. Individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quvchilarga o'z vaqtida differensial yordam berish. Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog'lash. Dars davomida har bir

o'quvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish. O'quvchilarni darsda faol qatnashishga ruhlantirishda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanish. O'quvchilarni darsga qiziqtirishda turli usullardan foydalanish. Sinfda samarali muloqotni ta'minlash.

Ta'lim-tarbiya jarayonida motivatsion vaziyatlarni yaratish, ularning samaradorligini tahlil qilish va kerakli natijalarga erishishda o'z harakatlarini o'zgartirish.

Sinfni boshqarish. Huquqiy madaniyat, odob va axloq me'yorlarga rioya qilish, professional axloq qoidalari, ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo'lish, eng yuqori sifat standartlariga erishishga intilish, sifatga e'tibor berish; innovatsiyalarni qabul qilish; o'zgarishlarni qabul qilish va ularga moslashish istagi; o'z tajribasini doimiy ravishda tahlil qilish va kasbiy amaliyotga o'zgarishlar kiritish; barcha bolalar o'rganishi va rivojlanishi mumkinligiga ishonch, har bir bolaning shaxsini hurmat qilish.

Ta'lim natijalarini baholash va diagnostika qilish uchun turli usul hamda vositalardan foydalanish. O'quvchilarning bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam va tizimli ravishda kuzatib borish. O'quvchilar erishgan yutuqlarni, natijalarni tahlil qilish. Dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish.

O'quvchilar bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda darsning aniq, o'lchamli maqsad va natijalarini aniqlab, dars rejasini ishlab chiqish. Darsning maqsadlari, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va o'zlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish. Tegishli o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish. Ta'limning aniq va o'lchanadigan natijalarini, shuningdek, ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar (yil, chorak, dars) uchun vazifalarni aniqlash, ularni rejalarda shakllantirish. O'quvchilarning bilimini baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarni muvofiqlashtirish.

2.2. O'qitishning zamonaviy texnologiyalari

Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ilg'or ish tajribalarni o'rganish va ularni ommalashtirish, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, umumiy o'rta ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi o'qituvchilar va metodistlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish samaradorligini aniqlash mezonlari: samarali natija kafolatlangani, natijaviyligi;

o'quvchilarni mustaqil ravishda bilim olishga yo'naltirish; o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi; o'rtacha o'zlashtirishga qobiliyatli o'quvchining imkoniyatlarini inobatga olish; tizimlilik, yaxlitlik tamoyiliga javob berish; integrativlik, fanlararo aloqadorlikda bo'lish; ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish; motivatsion ta'lim jarayonini ta'minlash; sog'lom ijodiy muhitni shakllantirish; o'quvchilarga milliy g'oya va umuminsoniy g'oyalarni singdirish; ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv laboratoriya jihozlari, elektron darsliklar va o'quv filmlaridan foydalanish; o'quvchilarni dars jarayonida mavzuga oid darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar va internet resurslari bilan ishlashga yo'naltirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'liq holda tushuntirish; dars bosqichlari uchun vaqtni to'g'ri taqsimlash; o'quvchi shaxsini rivojlantirishga hamda o'zaro faol munosabatlarga asoslash; o'quvchining aqliy faoliyatini rivojlantirish; dars sifatini ta'minlovchi nazorat turlaridan foydalanish; o'tgan va navbatdagi mavzularni mantiqiy ketma-ketlik va o'zaro bog'liq holda o'qitishni inobatga olish va boshqalar.

Ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan o'qitish, o'rganish va baholash bo'yicha Benjamin Blum taksonomiyasi – bilish jarayonining 6 bosqichi: tanib olish, eslab qolish; izohlash, tushuntirish; amalga oshirish; tahlil qilish; baholash; yaratish.

“Loyiha” tushunchasi va “Loyiha ta'limi”ning mazmun-mohiyati, maktab ta'limida loyiha texnologiyalaridan foydalanish tarixi va amaliyoti haqida. Maktab ta'lim sifatini yaxshilashda fanlar kesimidagi muammolarni, ehtiyojlarni aniqlash va maqsadli ta'limiy loyihalarni ishlab chiqish mexanizmi. Ta'limiy loyihalar, o'quvchi va o'qituvchilarning hamda ta'lim tizimi xodimlarining mustaqil tadqiqot faoliyati va ijodkorligini shakllantirish vositasi sifatida.

Ta'limda loyiha turlari va ularning strukturalari. Innovatsion loyihalar va ularni jahon ta'lim tajribasidagi ko'rinishlari.

Loyihaning tarkibiy qismlari: loyiha mavzusi, tavsifi, muammoni aniqlash, maqsad va vazifalar, muddati, bosqichlarini belgilash. Loyihani amalga oshirish guruhini shakllantirish va vazifalarni taqsimlash, loyiha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha amaliy mashq va topshiriqlar.

Muammoli ta'limning ilmiy-nazariy asoslari. Muammoli o'qitishning tarixi haqida. Evristik usullar va ularning ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi roli. O'quv va ilmiy muammolarning bir-biridan farqi. Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar. Muammoli vaziyat yaratish usullari. Muammoli vaziyatni hal etish darajalari. Muammoli vaziyatni yechishda qo'llanadigan usullar. Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo'yilgan talablar. “Muammoli vaziyat” metodi. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va

ularni yechish usullari. Muammoli ta'limning o'quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishdagi ahamiyati. Muammoni turli nuqtayi nazardan o'rganish, tahlil qilish. Turli o'quv fanlari bo'yicha dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari haqida.

Hamkorlikdagi ta'limning tarkibiy qismlari; o'zaro ijodiy va ijobiy bog'liqlik; shaxsiy javobgarlik; bir-biriga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish; samarali muhokama; guruh ishini samarali tashkil etish va natijani tahlil qilish. Trening mashg'ulotlarini tashkil etishning qoidalari: o'quv-tarbiya jarayonini aniq tasavvur qilish, yaratilgan g'oyalarni, yangiliklarni amaliyotga samarali joriy etish yo'llari.

O'quvchilardagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini baholashdagi yangicha yondashuvlar. Baholash mazmuni – fanni o'zlashtirish darajasini aniqlashda formativ, diagnostik yoki summativ xarakterdagi baholashda tekshirish uchun o'quvchidan talab etilayotgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui. Baholash formati. Baholash mazmuni belgilangandan so'ng summativ xarakterdagi baholash jarayonlarida aniq baholash formati va strukturasini ishlab chiqish. Baholash mezonlari. Baholash mezonlari – o'quvchining muayyan fandan o'quv natijalarini egallaganlik darajasini to'g'ri va haqqoniy tekshirish imkonini beruvchi o'lchovlar majmui.

Baholash texnologiyalari va metodikasi. Formativ baholash usullari. Formativ baholashda asosiy maqsad o'quvchini rivojlantirish bo'lgani uchun bunda o'z-o'zini baholash; o'zaro bir-birini baholash va o'qituvchi tomonidan baholashga yo'naltirilgan baholash usullari.

Summativ baholash usullari. Summativ xarakterdagi baholashlarda asosiy maqsad o'quvchilardagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarning rivojlanganlik darajasini aniqlash bo'lgani bois amaliy ishlar, loyiha ishlari, yozma ishlar, yakuniy testlar kabilardan foydalaniladi.

2.3. 4K ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi

XXI asr ko'nikmalari va turlari haqida umumiy tushuncha.

4K – kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik va kreativ fikrlash ko'nikmalarining izohi, ularning domenlari va xususiyatlari, ulardan ko'zlangan maqsad va vazifalar tahlili.

Fanni o'qitishda, sinflar kesimida kritik (tanqidiy) va kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va metodlaridan foydalanish.

O'quvchilarning kritik va kreativ fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. Kritik va kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoj. Fikrlash va bilim o'rtasidagi bog'liqlik. Fikrlash algoritmi. Kritik va kreativ fikrlashni shakllantiruvchi yondashuvlar, texnologiyalar va usullar. Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi

yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy etish yo'llari. O'quv jarayonida kreativ fikrlashni anglash va baholash. Kreativ fikrlashning shaxs bilan bog'liq yordamchi omillari. Aqliy qobiliyatlar. Maqsad sari intilish va ijodkorlik borasida o'z-o'ziga ishonch. Kreativ fikrlashning ijtimoiy yordamchi omillari: ta'lim yondashuvlari, sinfdagi muhit, ijodiy faoliyat, muammoni kreativ hal qilish.

Hamkorlikda ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va metodlari. Hamkorlikdagi ta'limning tarkibiy qismlari; o'zaro ijodiy va ijobiy bog'liqlik; shaxsiy javobgarlik; bir-biriga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish; samarali muhokama; guruh ishini samarali tashkil etish va natijani tahlil qilish.

Kommunikatsiya: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarning birligida namoyon bo'lishi.

Fanlar bo'yicha sinflar kesimida 4K ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishning samarali yo'llari.

TANLOV FANI

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, tinglovchilarning talab va ehtiyojlari asosida shakllantiriladi. Fan orqali o'qituvchilarining yangi kiritilgan, o'zlashtirilishi qiyin mavzular mazmuni va o'qitish metodlarini qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Mustaqil ta'limning mazmunmi, uni tashkil etish va baholash

Mustaqil ta'limning mazmuni o'quv rejada keltirilgan modullar asosida olib boriladi. Har bir fanning mazmunidan kelib chiqib, fan dasturida topshiriqlar kiritiladi. Mustaqil ta'lim uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasida baholanishi nazoratga olinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi

nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba].
– URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

9. “Ta’lim – 2030” Inchxon deklaratsiyasi. – Inchxon: Janubiy Koreya. 2015.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.

Asosiy adabiyotlar

1. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: FAN, 2011. – 232 b.

2. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.

3. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.

4. Po‘latov Sh. Ta’lim menejmenti yoxud ta’lim muassasasini ilmiy-metodik boshqarish strategiyasi. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 76 b.

5. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G., Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. 1-son. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassisleri, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 145 b.

6. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

7. Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.

8. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. – Toshkent: UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. – 128 b.

Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.

2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.
6. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
9. e-shahodatnoma.uz – maktabgacha va maktab ta’limi elektron shahodatnoma tizimi.
10. my.maktab.uz – umumta’lim maktablariga o‘quvchilarni onlayn qabul qilish tizimi.
11. erp.maktab.uz – xalq ta’limini boshqarish tizimi.
12. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
13. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
14. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.
15. yaklass.ru – maktab o‘quvchilari uchun raqamli ta’limiy resurs, Rossiya.
16. intuit.ru – milliy ochiq universitet, Rossiya.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI BOSHLANG'ICH TA'LIM
O'QITUVCHILARINI TABAQALASHTIRILGAN UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSINING
NAMUNAVIY O'QUV DASTURI**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI
(Tajriba-sinov tariqasida)

TOSHKENT – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini
tabaqalashtirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining
NAMUNAVIY O‘QUV DASTURI

Tuzuvchilar: A. Ismailov, B. Atayeva, T. Turgunbayeva, I. Xurramov

Taqrizchi:	Islam Hassan Mahmoud Hassan Elhadary	<i>A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti xorijiy maslahatchisi</i>
	M. Shodiyeva	<i>Qashqadaryo viloyati PYMO ‘MM maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim kafedراسi mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor v.v.b.</i>

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchilarini tabaqalashtirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, umumta'lim maktablari rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy standartlari asosida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan xalq ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug'i asosida o'tkazilgan diagnostik test natijalariga ko'ra, o'quv fanlarining nazariyasi va amaliyoti uyg'unligini ta'minlash, ta'limdagi ilg'or yutuqlarni o'rganish, inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabat, o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish: 4K – tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mavzular mazmuni umumiy o'rta ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi namunaviy o'quv dasturi, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari kasbiy standartida belgilangan kompetensiyalar va diagnostik test natijalari asosida IV tabaqada shakllantirilgan tayanch o'quv rejasining 2 ta blok tarkibidagi quyidagi 8 ta o'quv modullar mazmunini o'z ichiga oladi:

I. Boshlang'ich ta'limda ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish.

1.1. Boshlang'ich ta'limda ta'lim-tarbiya jarayoni uzviyligining o'ziga xosligi.

1.2. Boshlang'ich ta'limda ilg'or va xorijiy tajribalar.

1.3. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar.

1.4. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv yondashuv.

II. Mutaxassislik fanlari.

2.1. Boshlang'ich ta'lim fanlarining nazariy-amaliy va metodik asoslari (fanlar kesimida).

2.2. Boshlang'ich talim fanlarini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari.

2.3. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda 4K ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.

2.4. Tanlov fanlari.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursining maqsadi – ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalari – tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil etishning metodologik asoslarini singdirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar – boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining kasb standarti asosida, boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha boshlang'ich ta'lim o'qituvchisining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining hajmi 144 soatni tashkil etadi. Mazkur soatlar har bir tabaqa uchun 3 yillik muddat kesimida quyidagicha taqsimlanadi.

I tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari yuqori pedagog kadrlar uchun 3 yil davomida 108 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

II tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari yaxshi bo'lgan pedagog kadrlar uchun 72 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

III tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari qoniqarli pedagog kadrlar uchun uchun 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 72 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

IV tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari past bo'lgan pedagog kadrlar uchun uchun 108 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi.

Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

1.1. Boshlang'ich ta'limda ta'lim-tarbiya jarayoni uzviyligining o'ziga xosligi

Maqsad: kichik yoshdagi maktab o'quvchilari psixofiziologik qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va hamkorlikda ishlash.

Kutilayotgan natija: dars va darsdan tashqari jarayonlarda o'quvchining bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini to'g'ri shakllantirish, odob-axloq me'yorlarini o'rgatish, ota-onalar, jamoatchilik bilan ishlashdagi yangi yo'nalishlarni belgilash.

Boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim-tarbiya uzviyligi. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilari psixofiziologik qobiliyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda huquqiy, axloqiy va odob me'yorlari hamda ularning mohiyati. Bola ta'lim-tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi. O'quvchilarning o'quv motivatsiyalarini oshirish yo'llari. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash usullari. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlash. O'quvchilar bilan fanga oid va tarbiyaviy mavzulardagi tadbirlar tashkil etishda hamkorlik ishlari.

1.2. Boshlang'ich ta'limda ilg'or va xorijiy tajribalar

Maqsad: ta'lim sifati yuqori bo'lgan ilg'or va xorijiy tajribalarni o'rganish.

Kutilayotgan natijalar: darslarni STEAM texnologiyasi asosida tashkil etish, xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, TIMSS)ga oid topshiriqlarni tuza olish.

STEAM texnologiyasiga asoslangan zamonaviy ta'limning imkoniyatlari. STEAM loyihalar va ular ustida ishlash usullari. STEAM texnologiyasini interfaol metodlar asosida amalga oshirish imkoniyatlari.

Xalqaro baholash dasturi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini o'rganish. PIRLS xalqaro baholash dasturining mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari. Xalqaro PIRLS 2021 dasturining tadqiqot natijalari tahlili. O'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriq namunalari asosida ishlash. O'qish savodxonligi darslaridagi mavzular asosida PIRLS topshiriqlarini tayyorlash. To'garak darslarida PIRLS topshiriqlaridan foydalanish.

TIMSS tadqiqotining mazmuni va kontent sohalari, topshiriqlar va baholash mezonlari. O'quvchilarda TIMSS xalqaro tadqiqoti bo'yicha topshiriqlarni bajara olish ko'nikmalarini rivojlantirish.

1.3. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar

Maqsad: Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishga yo'naltirish.

Kutilayotgan natija: Boshlang'ich ta'limga oid yaratilgan multimedia, elektron darsliklar, interaktiv monitor, infografika, dars-mashg'ulotlarida onlayn video darslarni tatbiq eta oladi.

Raqamli texnologiyalar tushunchasi. Ta'limda raqamlashtirish. Raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar – elektron doska, elektron jurnal, infografika, onlayn prezentatsiya, ta'limga oid botlar.

Pedagogik dasturiy vositalar. HotPotatoes, iSpring, Quizy maker dasturlari bilan ishlash. Camtasia studio, Bandicam, FCapture dasturlarida videodarslar tayyorlash. Prezi.com, visme.com, canva.com platformalarida taqdimotlar yaratish. Online test topshiriqlarini tayyorlash tizimlari (kahoot.com, quizizz.com, quizalize.com, learningapps.org, puzzlemaker.discoveryeducation.com va boshqalar).

Kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirish hamda dars samaradorligini oshirishga oid AKT vositalari va Internet resurslar. Elektron pochtdan foydalanish. Mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan texnologiyalar. Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) orqali kasbiy mahoratni oshirish. Kasbiy faoliyatni baholash bo'yicha dasturiy vositalardan maqsadli foydalanishning samarali yo'llari.

1.4. Boshlang'ich ta'limda inklyuziv yondashuv

Maqsad: Boshlang'ich ta'limda inklyuziv ta'limni, ya'ni o'quvchilarni jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar birga o'qitishni tashkil qilish yo'llarini o'rgatish.

Kutilayotgan natija: Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik jihatlarini e'tiborga olgan holda ish olib boradi.

Inklyuziv ta'lim. Jismoniy va intellektual, ijtimoiy, hissiy va lingvistik kelib chiqishidan, shuningdek, irqidan, rangidan qat'iy nazar, har bir shaxsga umumta'lim muassasalarida o'qish imkoniyati beriladigan ta'lim shakli.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi

hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlash.

Inklyuziv ta'lim – inklyuziv jamiyatni rivojlantirishga olib keladigan ta'lim jarayonidir, u eksklyuziv, segregatsiya va integratsiyadan o'tib keluvchi tarixiy jarayon.

II. MUTAXASSISLIK FANLARI

2.1. Boshlang'ich ta'lim fanlarining nazariy-amaliy, metodik asoslari (fanlar kesimida)

Maqsad: Boshlang'ich ta'lim fanlaridagi yangiliklar, zamonaviy metodikalar bilan ishlashga o'rgatish.

Kutilayotgan natija: Har bir fan kesimida yangi avlod darsliklari bilan ishlash metodikasini egallaydi.

Boshlang'ich ta'lim fanlari, ta'limning asosiy nazariyalari va ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali usul hamda vositalari. Boshlang'ich ta'limning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha dolzarb muammolar yangiliklar, ilmiy izlanishlar.

Ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan yangi avlod o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari va ularning tahlili hamda nazariy asoslari mohiyatini o'zlashtirish.

2.2. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari

Maqsad: Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda innovatsion va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni o'rganish.

Kutilayotgan natija: Darslarda interfaol metodlar asosida o'yin texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, hamkorlik texnologiyasi, STEAM texnologiyalarini qo'llay oladi.

Boshlang'ich ta'limni o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalarni tushuntirish va ularni amalda qo'llash bo'yicha mashqlar bajarish. Darslarni zamonaviy, interfaol metodlardan foydalangan holda tashkil etishning mohiyatini o'rgatish.

O'yin texnologiyasining turlari va ulardan foydalanish yo'llari.

“Loyiha” tushunchasi va “Loyiha ta'limi”ning mazmun mohiyati, maktab ta'limida loyiha texnologiyalaridan foydalanish tarixi va amaliyoti haqida. Maktab ta'lim sifatini yaxshilashda fanlar kesimidagi muammolarni, ehtiyojlarni aniqlash va maqsadli “ta'limiy loyiha”larni ishlab chiqish mexanizmi. Ta'limiy loyihalar – o'quvchi va o'qituvchilarning hamda ta'lim tizimi xodimlarining mustaqil tadqiqot faoliyati va ijodkorligini shakllantirish vositasi sifatida.

Ta'limda loyiha turlari va ularning strukturalari. Innovatsion loyihalar va ularni jahon ta'lim tajribasidagi ko'rinishlari.

Loyihaning tarkibiy qismlari: loyiha mavzusi, tavsifi, muammoni aniqlash, maqsad va vazifalar, muddati, bosqichlarini belgilash. Loyihani amalga oshirish guruhini shakllantirish va vazifalarni taqsimlash, loyiha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish bo'yicha amaliy mashq va topshiriqlar.

Muammoli ta'limning ilmiy-nazariy asoslari. Muammoli o'qitish tarixi haqida. Evristik usullar va ularni ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi roli. O'quv va ilmiy muammolarning bir-biridan farqi. Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar.

Muammoli vaziyat yaratish usullari. Muammoli vaziyatni hal etish darajalari. Muammoli vaziyatni yechishda qo'llaniladigan usullar. Muammoli ta'lim mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarishga qo'yilgan talablar. "Muammoli vaziyat" metodi haqida. Dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari.

Muammoli ta'limning o'quvchilar ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarini o'stirishdagi ahamiyati. Muammoni turli nuqtayi nazardan o'rganish, tahlil qilish. Turli o'quv fanlari bo'yicha dars jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilish va ularni yechish usullari haqida.

Trening mashg'ulotlarini tashkil etishning qoidalari: o'quv-tarbiya jarayonini aniq tasavvur qilish, yaratilgan g'oyalarni, yangiliklarni amaliyotga samarali joriy etish yo'llari.

2.3. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda 4-K ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi

Maqsad: Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish jarayonida 4K modelini qo'llash imkoniyatlarini o'rganish.

Kutilayotgan natija: Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda 4K modeli: kritik, kreativ fikrlash, kommunikativlik va kollaboratsiya jarayonlarini to'g'ri qo'llay oladi, o'yin va interfaol metodlar asosida tatbiq eta oladi.

XXI asr ko'nikmalari va turlari haqida umumiy tushuncha.

4K – kollaboratsiya, kommunikatsiya, kritik va kreativ fikrlash ko'nikmalarining izohi, ularning domenlari va xususiyatlari, ulardan ko'zlangan maqsad va vazifalar tahlili.

Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitishda, sinflar kesimida kritik (tanqidiy) va kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va metodlaridan foydalanish.

O'quvchilarning kritik va kreativ fikrlashini rivojlantirishning ahamiyati. Kritik va kreativ fikrlashga bo'lgan ehtiyoj. Fikrlash va bilim o'rtasidagi bog'liqlik. Fikrlash algoritmi.

Kritik va kreativ fikrlashni shakllantiruvchi yondashuvlar, texnologiyalar va usullar. Kreativ fikrlashni shakllantiruvchi yondashuvlarni ta'lim jarayoniga joriy etish yo'llari. O'quv jarayonida kreativ fikrlashni anglash va baholash. Kreativ fikrlashning shaxs bilan bog'liq yordamchi omillari.

Aqliy qobiliyatlar. Maqsad sari intilish va ijodkorlik borasida o'z-o'ziga ishonch. Kreativ fikrlashning ijtimoiy yordamchi omillari: ta'lim yondashuvlari, sinfdagi muhit, ijodiy faoliyat, muammoni kreativ hal qilish.

Hamkorlikda ishlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy strategiyalari va metodlari. Hamkorlikdagi ta'limning tarkibiy qismlari; o'zaro ijodiy va ijobiy bog'liqlik; shaxsiy javobgarlik; bir-biriga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish; samarali muhokama; guruh ishini samarali tashkil etish va natijani tahlil qilish.

Kommunikatsiya: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'lishi.

Fanlar bo'yicha sinflar kesimida 4K ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirishning samarali yo'llari.

Tanlov fani

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, ishtirokchilarning talab va ehtiyojlari asosida shakllantiriladi. Fan o'qituvchilarining yangi kiritilgan, o'zlashtirilishi qiyin mavzular mazmuni va o'qitish metodlarini qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Mustaqil ta'lim mazmuni, uni tashkil etish va baholash

Mustaqil ta'lim mazmuni o'quv rejada keltirilgan modullar asosida olib boriladi. Har bir fanning mazmunidan kelib chiqib fan dasturida topshiriqlar kiritiladi. Mustaqil ta'lim uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasida baholanishi nazoratga olinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.

2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son. [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M., Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 416 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 2-jild. – 508 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 163 b.

2. G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H. Husnixat va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: TDPU, 2013. – 70 b.

3. Jumayev M. E. Matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik). – Toshkent: Turon Iqbol, 2020. – 426 b.

4. O‘qish savodxonligi bo‘yicha xalqaro natijalar. – Toshkent: Ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), 2023. – 156 b.

5. PIRLS 2021 Baholash qamrov doirasi / Ina V. S. Mullis va Michael O. Martin tahriri ostida. – Toshkent: Ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA), 2021. 91 b.

6. Ismailov A. A., Daminov X. J., Karimberdiyev Q. K., Islomova Z. Sh. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan axborotnoma. – Toshkent: Sharq, 2019. – 91 b.

7. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholash. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlari va soha mutaxassislari uchun metodik qo‘llanma / Ina V. S. Mullis va Michael O. Martin tahriri ostida. – Toshkent: Sharq, 2019. – 145 b.

8. Ishmuhammedov R. J., Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 279 b.

9. Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 167 b.

10. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

11. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – 46 b.

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
6. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
7. e-shahodatnoma.uz – maktabgacha va maktab ta’limi elektron shahodatnoma tizimi.
8. my.maktab.uz – umumta’lim maktablariga o‘quvchilarni onlayn qabul qilish tizimi.
9. erp.maktab.uz – xalq ta’limini boshqarish tizimi.
10. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
11. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
12. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**MAKTAB TA'LIMI TASHKILOTLARI RAHBAR XODIMLARI
UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

TOSHKENT – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA
O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**Maktab ta’limi tashkilotlari rahbar xodimlarini uzluksiz kasbiy
rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar: A. Ismailov, M. Ergasheva, M. Abdullayeva, A. Baxramov
I. Siradjev, E. Murodov, S. Eshqobilov

Taqrizchi: Islam Hassan Mahmoud *A. Avloniy nomidagi milliy-
Hassan Elhadary tadqiqot instituti rektorining
xorijiy maslahatchisi*

Sh. Abdullayeva *Nizomiy nomidagi Toshkent
davlat pedagogika
universitetining tillar fakulteti
dekani, p.f.d., professor*

Maktab ta’limi tashkilotlari rahbar xodimlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrda navbatdan tashqari 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 25-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi “Davlat ta’lim talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, umumta’lim maktablari rahbar va pedagog xodimlarining kasbiy standartlari asosida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida maktab ta’limi tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim maktab rahbarlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, maktab ta’limi tizimi xodimlari va umumta’lim maktablari direktorlari malakasini uzluksiz oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan, zamonaviy talablar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktabi, ixtisoslashtirilgan maktab-internat, ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabi direktorlari menejerlik ko‘nikmalarini rivojlantirish va kasbiy kompetentligini muntazam oshirishga qaratilgan.

Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati, umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda maktab rahbarining kasbiy standarti asosida rahbarlik faoliyatini amalga oshirishdagi layoqati, jumladan, umumiy o‘rta ta’lim muassasasini rivojlantirish va o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishdagi liderlik mahorati, o‘qituvchilar va o‘zining kasbiy rivojlanishiga mas’uliyati va o‘zgarishlarga moslashuvchanligini oshirish, unda jamoada ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni maktab ta’limi tashkilotlari rahbarlari, Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘lim mudirlari va sho‘ba mudirlari, umumiy o‘rta ta’lim maktabi, maxsus ta’lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktab-internati, ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktablari direktorlari, umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab internat) o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, umumiy o‘rta ta’lim maktabi (maktab internat) ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, “Barkamol avlod” bolalar maktabi direktorlari malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo‘lib, ta’lim muassasasi rahbar kadrlarining o‘quv jarayonini va jamoani boshqaruv mahorati, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish, ota-onalar bilan hamkorlik va muloqot qilish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini maktab boshqaruvi jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini muntazam rivojlantirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha va maktab ta’limi tashkiloti rahbarlarining malakasini uzluksiz oshirish kursining namunaviy o‘quv dasturi maktab rahbarining kasbiy standartida belgilangan kompetensiya bo‘yicha quyidagi 8 ta o‘quv modulini o‘z ichiga oladi.

I. Ta’lim muassasasini rivojlantirish

- 1.1. Ta’lim muassasasini boshqarishning zamonaviy modellari va strategiyalari.
- 1.2. Ta’lim muassasasini boshqarishda moliyaviy-iqtisodiy masalalar.
- 1.3. Ta’lim muassasasida xodimlarni boshqarish faoliyatining huquqiy asoslari.
- 1.4. Umumiy o‘rta ta’limda inklyuziv ta’limni tashkil etish.

II. Ta’lim-tarbiya berish samaradorligi va fanlarni o‘zlashtirish sifatini oshirish masalalari

- 2.1. Xalqaro yondashuvlar asosida maktab ta’limi samaradorligini oshirish.
- 2.2. Boshqaruvning pedagogik-psixologik asoslari.
- 2.3. Boshqaruvda AKTdan foydalanish.
- 2.4. Jamoatchilik va ota-onalar bilan ishlash.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursining maqsadi

- umumiy o‘rta ta’limning ta’limiy va tarbiyaviy dasturlari asosida maktab ta’limi tashkilotlari rahbarlari, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlarining

ta'lim muassasasini va o'quv-tarbiya jarayonini samarali boshqaruv kompetentligini rivojlantirish;

- ularda jamoa va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik va muloqot, boshqaruvda liderlik, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish hamda boshqaruvning ilg'or usul va vositalari, yondashuvlari bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash va rivojlantirish.

Kursning vazifalari

- kurs ishtirokchilariga amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni haqida kengroq tushuncha berish hamda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslariga e'tibor qaratish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasasining uzluksiz rivojlanish va o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishning ilg'or texnologiyalari va zamonaviy usullari bilan tanishtirish;

- rahbar xodimlarni ta'lim muassasalarini boshqarishning moliyaviy va moddiy-texnika ta'minoti, ta'lim sohasi marketingi, muassasa xavfsizligi masalalariga doir bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash;

- rahbar xodimlarga boshqaruv jarayonida qo'llanadigan, o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladigan, sog'lom, konstruktiv va rag'batlantiruvchi muhitni yaratish texnologiyalarini o'rgatish;

- insoniy, moliyaviy va moddiy resurslarni boshqarishning zamonaviy usul va tamoyillari asosida xodimlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish bo'yicha faoliyatni tashkil etishning samarali usullarini o'rgatish;

- rahbar xodimlarning yuqori sifatli ish yuritishini ta'minlash, shuningdek, normativ-huquqiy va ish hujjatlari o'z vaqtida, belgilangan tartibda bajarilishiga erishish;

- rahbarlik va kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmasini rivojlantirish;

- jamoatchilik va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlarini o'rnatish usullarini o'rgatish;

- ta'lim muassasalari rahbar xodimlarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Ushbu talablar "Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standarti"ning "Ta'lim muassasasini rivojlantirish va o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish", "O'zini-o'zi rivojlantirish va o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish",

“Personalni boshqarish”, “Ish yuritish va hisobot”, “Jamoatchilik va ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlik munosabatlari” yo‘nalishlari bo‘yicha maktab ta’limi tashkilotlari rahbar xodimlarining bilim, ko‘nikma, malaka, tayyorgarligi va kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining hajmi 30 soatni tashkil etadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish ta’limi dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan, **jami 15 kredit ball**ga ega bo‘lgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi. O‘quv modulining **har 2 soatini** o‘zlashtirganligi uchun tinglovchiga **1 kredit ball** beriladi.

Maktab ta’limi tashkilotlari rahbar xodimlari kursi o‘quv rejasidagi modullarning mazmuni

I. TA’LIM MUASSASASINI RIVOJLANTIRISH

1.1. Ta’lim muassasasini boshqarishning zamonaviy modellari va strategiyalari

Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda boshqaruv faoliyatining ahamiyati. Boshqaruvning kelib chiqishi va uning rivojlanish bosqichlari. Boshqaruvning o‘ziga xos xususiyatlari. Ta’lim menejmentining ta’lim muassasalarini boshqarishdagi o‘rni. Zamonaviy menejment tushunchasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi samarali o‘rni. Samarali boshqaruv tamoyillari. Ta’lim muassasasini boshqarishning zamonaviy modellari va uslublari. Boshqaruvda X-Y nazariyalari.

Ta’lim muassasasini rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishning zamonaviy shakllari. Maktabning asosiy missiyasini belgilashning samarali yo‘llari. Strategiya va strategik rejani ishlab chiqishda muhim ma’lumotlarni to‘plash, saralash, tahlil qilish va ishlash.

Ta’limda personalni boshqarish yondashuvidan inson resurslarini boshqarish tizimiga o‘tish va uning ahamiyati. Zamonaviy menejmentni tashkillashtirishda inson resurslarini, ichki imkoniyatlarni e’tiborga olish shartlari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida HR amaliyotlarini tatbiq qilish. HR menejment va kadrlar siyosati. Inson resurslarini boshqarish, jumladan, strategik boshqarish bosqichlari. Xodimlarni boshqarish funksiyalari. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida inson resurslarini boshqarish va ular faoliyati samaradorligini baholash va reyting tizimi.

1.2. Ta’lim muassasasini boshqarishda moliyaviy-iqtisodiy masalalar

Muassasani rivojlantirishda mavjud moddiy va nomoddiy resurslarni boshqarish, shtat jadvallari bilan ishlash. Muassasani boshqarishda moliyaviy va moddiy resurslardan samarali foydalanish; resurslarni tahlil qilish, ko'paytirish, ulardan maqsadli foydalanishga yo'naltirish.

Ta'lim muassasasining moliyaviy hujjatlarini yuritish va hisobot tayyorlash.

Xodimlar mehnatiga haq to'lash va tarifikatsiyalarni me'yor asosida tuzish amaliyoti. Umumta'lim muassasalarida belgilangan me'yorlar bo'yicha sinflar komplektlarini shakllantirish. O'quv reja va dars soatlarini pedagoglar va rahbar xodimlarning lavozimi va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalari asosida shakllantirish.

Ta'lim muassasasini moliyalashtirish mexanizmlari. Byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larni topish va rag'batlantirishga yo'naltirish. Byudjet mablag'laridan to'g'ri foydalanish. Mavjud imkoniyatlardan foydalanish orqali byudjetdan tashqari mablag'larni topishda xodimlarning malaka va tajribasidan foydalanish yo'llari hamda jamoani rag'batlantirish. Byudjetdan tashqari mablag'larni topishda homiylarni jalb etish yo'llari hamda ilg'or, professional va tashabbuskor xodimlarni motivatsiyalash. Tegishli hujjatlar bilan ishlash amaliyoti.

O'qituvchi va o'quvchilarni rag'batlantirish, qo'llab-quvvatlash usullari. Iqtidorli, ijodkor o'qituvchi va o'quvchilarga yetarli sharoitlar yaratish, ularga motivatsiya berish ishlarini tashkil etish. Ota-onalar, jamoatchilik kengashlari, homiy tashkilotlar, yoshlarni qo'llab-quvvatlash tashkilotlarini jalb qilish usullari va yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish.

Muassasada ta'lim xizmatlari marketingi. Ta'limda marketing tushunchasi. Marketing xizmatining asosiy vazifalari. Maktab ta'limi faoliyatida marketing xizmatlari mazmuni. Ta'lim muassasalarida marketing xizmatini tashkil etish bosqichlari. Muassasani boshqarishda byudjet va byudjetdan tashqari mablag'larning samaradorligini tahlil qilish. Ta'lim muassasalarini rivojlantirish uchun investitsiyalar, grantlar va homiylik yordamini jalb qilish. Muassasada davlat-xususiy sherikchilikni tashkil qilish yo'llari.

Xodimlarni tizimli rag'batlantirish va motivatsiyalash amaliyoti. Muassasada faoliyat olib borayotgan xodimlar faoliyatini doimiy o'rganib borish usullarini ishlab chiqish, ularni ruhlantirish, yutuqlarga erishish va o'z ustida ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan rag'batlantirish yo'llaridan oqilona foydalanish, sog'lom raqobat muhitini tashkil etish orqali homiylar, jamoatchilik tashkilotlari bilan hamkorlikda ularning kasbiy mahoratini oshirib borishga undovchi turli tadbirlar tashkil etish. Yuqori malakali xodimlarni ishga qabul qilish bo'yicha erishilgan yutuqlarini aniqlash va rivojlantirish.

1.3. Ta'lim muassasasida xodimlarni boshqarish faoliyatining huquqiy asoslari

Ta'lim muassasasida mehnatga oid munosabatlarni tartibga solish: mas'ul davlat organlari, ularning vakolatlari. Mehnat munosabatlari tasnifi. Mehnat huquqiga doir qonunlar va qonunosti hujjatlari. Konstitutsiya, qonun, kodekslar, farmon, qaror, buyruqlarning mazmun-mohiyati.

Mehnat munosabatlari va mehnat qonunchiligi: yangi tahrirdagi Mehnat kodeksining mazmun va mohiyati, ish hujjatlari, mehnat shartnomasi, jamoa shartnomasi, buyruq, mehnat ta'ili qonunchiligi va sohaga oid hujjatlar, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining mazmun va mohiyati.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida kadrlarga oid hujjatlarning yuritilishi. Ish yuritish va rasmiy hujjatlar bilan ishlash masalalari. Maktablarga xodimlarni ishga qabul qilishda rasmiylashtiriladigan hujjatlar. Ta'lim tizimida hujjatlarni yuritishning belgilangan me'yorlariga amal qilish (hujjatlarni adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda yaratish, hisobotlarni yuritishda hisobdorlikni ta'minlash).

Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish masalalari. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olishda davlat dasturlarining ahamiyati. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy madaniyatni yuksaltirish. Korrupsiyaviy qilmishlarga tayinlanadigan jazo turlari.

Bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosati, bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalalari. Bola huquqlarining qonuniy kafolatlari, bolaning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi kafolatlari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlarining qo'shimcha kafolatlari.

1.4. Umumiy o'rta ta'limda inklyuziv ta'limni tashkil etish

Inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar, ularning mazmun va mohiyati. Inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi; inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tartibi. Inklyuziv ta'limni joriy qilish bosqichlari. Umumiy o'rta

ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonlari, xorijiy va milliy tajriba. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda yuzaga keladigan muammo va yechimlar.

II. TA'LIM-TARBIYA BERISH SAMARADORLIGI VA FANLARNI O'ZLASHTIRISH SIFATINI OSHIRISH MASALALARI

2.1. Xalqaro yondashuvlar asosida maktab ta'limi samaradorligini oshirish

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar talablari asosida o'quvchilarning o'qish va o'qib tushunish, matematika va tabiiy fanlarni o'zlashtirish sifatini oshirish. Xalqaro baholash dasturlari natijalari asosida umumta'lim maktablarida ta'lim sifatini oshirishning milliy tizimini takomillashtirish.

Milliy dasturni amaliyotga joriy etish hamda ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishdagi ustuvor vazifalar. Milliy dasturning mazmun-mohiyati, yo'nalishlari, amalga oshirish mexanizmi. Ta'lim muassasasini rivojlantirish, o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish samaradorligiga erishish, yetarli shart-sharoitlar yaratish, o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini e'tiborga olgan holda ta'lim jarayonlarini tashkil etish, ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish, xorijiy tajribalardan foydalanish.

Ta'lim sohasidagi ilg'or xalqaro tajribalar, innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan amaliyotda foydalanishning samarali yo'llari. Natijaga asoslangan boshqaruv (result based management). Pedagog xodimlarning samaradorlik ko'rsatkichlari (key performance indicators). Loyihalarni boshqarish (project management). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida loyihaviy ta'limni joriy etish va boshqarish masalalari.

O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularga odob-axloq qoidalarini o'rgatish, maktabda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda zamonaviy usullardan foydalanish.

2.2. Boshqaruvning pedagogik-psixologik asoslari

Boshqaruv psixologiyasining metodlari va tadqiqot o'tkazish uslublari. Boshqaruv psixologik jarayon sifatida. Boshqaruv faoliyatining obyektiv asoslari, obyektiv psixologik qonunlar. O'z-o'zini bilish rahbar faoliyatida muhim jihat sifatida. Boshqaruv psixologiyasini bilish rahbarlikning yetakchi jihatlaridan biri ekanligi. Muzokaralar olib borishning psixologik jihatlari.

Boshqaruvda psixologik muammolar va ularga yechim topish. Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik. Rahbarlarning o'z qo'l ostida ishlovchi xodimlariga psixologik ta'sir ko'rsatish shakllari. Qaror qabul qilishning o'ziga xos talablari. Qaror qabul qilish bosqichlari. Rahbarning to'g'ri qaror qabul qilishiga monelik qiluvchi omillar. Rahbar, menejer va lider, menejment

bosqichlari, boshqaruv uslublari va ularni tahlil qilish, maktab boshqaruvida liderlik (turlari).

Boshqaruv uslublari: avtoritar, demokratik, liberal, partisipativ. Avtoritar uslub va uning tahlili. Demokratik uslub va uning tahlili. Liberal uslub va uning tahlili. Partisipativ uslub va uning tahlili. Rahbarning jamoadagi o'rnini, o'zini baholashi. Boshqaruvning vaziyatga ko'ra tanlanishi. Boshqaruv matritsasi.

Kasbiy ehtiyojlarni qondirish va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari, usul va vositalari. Maktab direktori va o'qituvchilar portfoliosi. Pedagogik, o'quv-tarbiya yo'nalishlarini o'rganish metodikasini ishlab chiqish, ichki baholash tizimini yaratish, hamkorlik asosida o'qituvchilarning kasbiy, shaxsiy mahoratlarini oshirishga shart-sharoit yaratish.

Maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil qilishning zamonaviy yondashuvlari. O'quvchilarni kasbga yo'naltirishda rahbarlarning boshqaruv usullari. Kreativ yondashuv asosida boshqaruvda yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati, mazmuni, innovatsion g'oyalarni shakllantirish. Ta'lim muassasasida o'quvchilarning bilim olishlari va kasb egallashlarini uyg'unlashgan holda tashkil etish ishlarining mazmun-mohiyati. Zamonaviy va kelajak kasblarini tanlashda o'quvchilarning kreativ qobiliyatlariga qarab kasbga yo'naltirish. Mehnat bozori talablarini o'rganish, maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasi hamkorligini yo'lga qo'yish.

Rahbarga xos notiqlik san'ati. Rahbar nutqi va uning boshqaruvdagi o'rnini. O'z fikrini aniq va ravon ifoda eta olish malakalari, tanqidiy fikrlash va vaziyatlarni oldindan ko'ra olish. Ta'sirchan nutq so'zlash. Nutq uslublari. Ommani o'ziga jalb qilish sirlari. Nutqda e'tiborga olish zarur bo'lgan talablar. Amaldagi me'yoriy hujjatlar bilan ishlash.

Boshqalar fikrini hurmat qilish. O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralari va ulardan samarali foydalanish.

2.3. Boshqaruvda AKTdan foydalanish

Ta'limda axborot va interaktiv davlat xizmatlari. O'zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsiyaga tegishli direktiv hujjatlar. Ta'limiy axborot resurslari va elektron tizimlar. Elektron hujjat aylanish tizimlari va ulardan foydalanish amaliyoti. Yagona interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish. Yagona identifikatsiya tizimi (OneID) orqali resurslardan foydalanish imkoniyatlari. Kasbiy faoliyatda bulutli texnologiyalar (Google, DropBox va boshqalar) va ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullari. AKT vositalari va Internet resurslaridan boshqaruv faoliyatida foydalanish.

2.4. Jamoatchilik va ota-onalar bilan ishlash

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida hamkorlik masalalari. Ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashda ota-onalar hamkorligi. Maktab rahbarining ota-onalar bilan ishlashida muloqotga kirishish, rahbarning kommunikativ kompetentligi, samarali muloqot asoslari. Ota-onalarni maktab hayotiga jalb qilish, ularning ehtiyoj va takliflarini o'rganish, maktabning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda hamkorlik o'rnatish.

“Oila – mahalla – maktab hamkorligi” konsepsiyasining ta'limdagi o'rni, o'zaro hamkorlikning ijobiy natijalarini prognoz qilish va hamkorlik masalalari. Ta'lim muassasasida hamkorlik faoliyati orqali raqobatbardosh maktabni shakllantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish shakllarini ishlab chiqish.

Ta'lim jarayoni sifatini oshirish va o'quvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirishda o'z hamkasblari bilan AKTning turli vositalari yordamida muloqot o'rnatish va hamkorlik qilish. PR (jamoatchilik bilan aloqalar)ni tashkil etish usullari. Ta'lim muassasasida ma'naviy-ma'rifiy ishlar faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda yoritish. Ota-onalar bilan o'zaro munosabatlar.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktyabr [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
4. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son. [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni:

2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quv asbob-uskunalari va anjomlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2017-yil 2-iyun, 345-son [Elektron manba]. – URL: <https://www.lex.uz/docs/-3231533>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 558-son qarori: 2022-yil 3-oktyabr, 558-son Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6221555>

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Qurbonov Sh, Seytxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.

2. Ishmuhamedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.

3. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

4. Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 278 b.

5. Ismailov A., Axmedov X. Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda xalqaro PIRLS dasturining ahamiyati // PIRLS xalqaro baholash dasturi: nazariya va tatbiq etish istiqbollari: xalqaro ilmiy-amaliy masofaviy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2020. – 131–137 b.

6. Ergasheva M. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 167 b.

7. Eshqobilov S. O'quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

Elektron manbalar

1. gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.
6. uza.uz – O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. emaktab.uz – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining raqamli ta'lim platformasi.
9. e-shahodatnoma.uz – maktabgacha va maktab ta'limi elektron shahodatnoma tizimi.
10. my.maktab.uz – umumta'lim maktablariga o'quvchilarni onlayn qabul qilish tizimi.
11. erp.maktab.uz – xalq ta'limini boshqarish tizimi.
12. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta'lim platformasi.
13. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
14. ziyonet.uz – axborot ta'lim portali.
15. yaklass.ru – maktab o'quvchilari uchun raqamli ta'limiy resurs, Rossiya.
16. intuit.ru – milliy ochiq universitet, Rossiya.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**PEDAGOGLARNI YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY MARKAZLARINING PROFESSOR-O'QITUVCHILARI
UCHUN UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

Toshkent – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

**Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarining
professor-o‘qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining
namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar: A. Ismailov, M. Ergasheva, M. Abdullayeva,
L. Mirzoxidova, G‘. Otamurodov

Taqrizchilar: Sh. Abdullayeva – *Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universitetining tillar fakulteti dekani, p.f.d.,
professor*

B. Xaydarov – *Toshkent shahar Pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi aniq va tabiiy
fanlar metodikasi kafedrasi professori v.b., f.-m.f.n.*

Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarining professor-o‘qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi navbatdan tashqari yig‘ilishi 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son va 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining professor-o'qituvchilari kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg'or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o'zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko'nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat siyosati, pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi, inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari, fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari, o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini baholashni o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Mazkur namunaviy o'quv dasturi doirasida taqdim etilayotgan o'quv modullarining mazmuni kurs tinglovchilarining zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o'quv dasturi quyidagi modullar mazmunini o'z ichiga qamrab oladi:

1. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. AKT va mediasavodxonlik.
3. O'zini o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari.
4. Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari.
6. Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari.
7. Fandagi yangiliklar va o'qitishning dolzarb masalalari.
8. Tinglovchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kurs maqsadi: zamonaviy ta'lim, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- kurs tinglovchilariga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslarini batafsil tushuntirish;
- ta'lim-tarbiyaning ilg'or texnologiyalari va xorijiy tajribalarni o'rgatish;
- kurs tinglovchilarini ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari bilan tanishtirish;
- pedagoglarning kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- pedagoglarning malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv rejasining "Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish", "AKT va mediasavodxonlik", "O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish", "Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi", "Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari", "Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari", "Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari", "O'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini baholash" modullari bo'yicha kurs tinglovchilarining bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar tegishli yo'nalish bo'yicha pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining professor-o'qituvchilari malakasini oshirish mazmuni, sifati va

ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining davomiyligi 36 soatni tashkil etadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi. O'quv modulining har 2 soatini o'zlashtirgani uchun kurs ishtirokchisiga 1 kredit ball beriladi.

Pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining professor-o'qituvchilari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv modullarining mazmuni

1. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish

Kommunikativ ko'nikma tushunchasi va turlari. Fikrni qisqa, lo'nda va yorqin bayon etish. Nutqning ravon va adabiy til qoidalariga muvofiqligi. Muloqotda o'z fikriga ishonтира olish, argument va qarshi argumentni bayon etayotganda fikrlar ketma-ketligi va mantiqan izchilligini ta'minlashga erishish. O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarshi qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olish. O'zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish. Pedagog imiji va muloqot madaniyati.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish usullari va ulardan samarali foydalanishda xalqaro hamjamiyat erishgan va qo'llab kelayotgan ilg'or tajribalar tahlili. Professor-o'qituvchilarning global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlari va ulardan ta'lim sifatini oshirishda foydalanish.

2. AKT va mediasavodxonlik

Ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya va raqamli ta'lim texnologiyalarni joriy etish. Pedagogning raqamli kompetentligi va uning tarkibiy tuzilmasi. Raqamli didaktika va uning asosiy tamoyillari. Raqamli ta'lim resurslarini loyihalash uchun asosiy talablar. Raqamli ta'lim resurslari sifatini baholash.

Mediasavodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda ularni o'quvchilarda shakllantirish. Elektron ta'lim resurslaridan ta'lim jarayonida foydalanish. Elektron ta'lim resurslari mavjud portal va saytlar. Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish. O'quv jarayonini samarali tashkil qilishda videodarsliklar kutubxonasi (maktab.uz, xanakademiya.uz) va

boshqa elektron resurslardan foydalanish. Zamonaviy texnologiyalar asosida darslarni mazmunli tashkil qilish usullari. QR kod texnologiyasi. Kasbiy faoliyatda bulutli texnologiyalardan foydalanish.

Maktab ta'limi jarayonini boshqarish tizimi bilan ishlash. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasi.

3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish

Butun hayot davomida ta'lim olish g'oyasi (*lifelong learning*). Kasbiy ehtiyojlar asosida kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari, usul va vositalari.

O'qitish texnologiyasi tushunchasi, o'quv material mazmunini tahlil qilish, tanlash, o'quv mashg'uloti mazmuni, o'quvchining yoshi va bilim darajasiga mos o'qitish texnologiyasini tanlashning samarali yo'llari. Hamkorlik ta'limi tushunchasi, maqsad va vazifalari. O'qituvchilarning o'zaro hamkorlik (Collaborative) faoliyatini samarali tashkil etish shakllari va elementlari. O'zaro hamkorlik ta'limining besh jihati.

O'zini o'zi kasbiy rivojlantirish (*Self-menejment*) imkoniyatlari, to'siqlarni aniqlash va samarali yo'llarini tanlash bo'yicha tavsiyalar. O'qituvchining professionallik darajasini yuksaltirish, shaxsiy fazilatlarini hamda faoliyati natijaviyligini ta'minlashga erishishning samarali yo'llari.

Kasbiy rivojlanishiga oid manbalar, qonunchilik normalarini bilish, ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish, maktab ta'limi ehtiyojlaridan kelib chiqib, kasbiy malakasini oshirish. Kasbiy rivojlanish bo'yicha o'quvlarni tanlash strategiyasi.

4. Pedagog mas'uliyati va moslashuvchanligi

Mas'uliyat va moslashuvchanlik haqida tushuncha. Pedagogik mas'uliyat. Pedagogning o'quvchilar bilimi, hayoti va sog'lig'i uchun javobgarligi. Moslashuvchanlik jarayon sifatida. Ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish. O'zgarishlarga moslashuvchanlik psixologiyasi. O'zgarishlarga moslashuvchanlikning modellari va tiplari. Shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlikning ahamiyati. Ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash hamda o'z kasbiy amaliyotiga joriy eta olish. Pedagogik jamoa va uning ijtimoiy psixologik xususiyatlari.

Pedagogik jamoalarda kuzatiladigan muammolar, pedagogik jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda xodimlarning o'zaro munosabatlari. Pedagogik jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit va uning asosiy mezonlari. Jamoadagi psixologik holatni aniqlashda diagnostik-psixologik trening.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari

Inklyuziya va inklyuziv ta'lim tushunchasi. O'quvchilarni jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar birga o'qitishni tashkil qilish. Bunda yuzaga keladigan muammolar va ularni samarali hal etish usullari.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid me'yoriy hujjatlar. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning strategiyalari.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik jihatlari.

6. Ta'lim jarayonini tashkil etishning huquqiy asoslari

Qonunchilik normalari, mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ta'limning normativ-huquqiy hujjatlari bilan ishlash va kasbiy faoliyatida samarali foydalanish. O'z kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va amaliyotda qo'llay olish. Bola huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va ularga rioya qilishni tashkil etish. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olishda ishtirok etish. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar va uni bartaraf etishga oid takliflar.

7. Fandagi yangiliklar, fanni o'qitishning dolzarb masalalari

Fandagi yangiliklar, kashfiyot va ixtirolar. Fanning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha dolzarb muammolar, yangiliklar, ilmiy izlanishlar, dissertatsiyalar, ilmiy, ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar materiallaridan fanni o'qitishda foydalanish.

Fanni o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalar va ularni amalda qo'llash. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish. Ayrim murakkab mavzularni o'qitish samaradorligini oshirish omillari. Fanni o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish.

Ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qo'llash jarayoni haqidagi tushunchalar, modellar va vositalar. Ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar: Milliy o'quv dasturi, Milliy o'quv dasturi komponentlari, fanlar bo'yicha konsepsiyalar, tayanch o'quv rejasi, o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi, baholash metodologiyasi, ta'limdagi ilg'or xorijiy yondashuvlar. Janubiy Koreya, Singapur, Finlandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya tajribalari, Milliy o'quv dasturini amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS, STEAM va boshqalar). PIRLS va PISA ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqoti va natijalari. PIRLS xalqaro tadqiqoti topshiriqlarini baholash metodikasi bilan

tanishish, o'qish va matnni tushunish savodxonligini rivojlantirish. TIMSS xalqaro baholash dasturining maqsadi, qamrov doirasi, asosiy yo'nalishlari, mazmuni va samaradorligi. Ilg'or o'quv materiallarini va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish. Baholashning yangi usul va vositalari. Bilim va ko'nikmalarni baholashning alternativ yondashuvlari. Hayotiy ko'nikmalarning tavsiflari. Bilim va ko'nikmalarni baholashdagi farqlar. Ko'nikmalarni baholashning maqsadlari.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni baholash metodologiyasi. Bilim va ko'nikmalarni baholashga tayyorgarlik ko'rish. Formativ va summativ baholash. O'quvchilarning o'quv tajribasi va ehtiyojlarini baholash. O'quvchilarning o'z-o'zini hamda boshqalarni baholash usul va vositalari. Baholash vositalaridagi mezonlarni ishlab chiqish. Baholash mezonlarining DTSlari talablari va fan mazmuni bilan mosligini ta'minlash. Baholashni amalga oshirishda o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini korrektirovka qilish. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari, usul va vositalari. Baholash usullari. STesting dasturlari, test topshiriqlari va ularni tayyorlash.

Ta'limda monitoring va uning ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishdagi roli. Monitoring yo'nalishlari. Monitoring maqsadlari. Davlat ta'lim standarti asosida o'quvchilar natijalarini monitoring qilish. Maktabda monitoring turlari. Monitoringni rejalashtirish, tayyorgarlik va o'tkazish bosqichlari.

O'quv-metodik materiallar tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish.

O'quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, multimedia mahsulotlari, elektron platformalar orqali o'rganuvchi va o'rgatuvchi kontentlar (videodars, virtual laboratoriyalar, elektron dasturlar va boshqalar).

Uzluksiz kasbiy rivojlanish, shu jumladan, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari. Fan bo'yicha pedagoglarning ilg'or tajribalarini aniqlash, tahlil qilish, o'rganish, yozish, umumlashtirish, ommalashtirishning zamonaviy texnologiyalari, shakl va usullari. STEAM ta'limi.

8. Tinglovchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari

Baholash ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida. Pedagogning kasbiy kompetensiyasini baholash usullari va vositalari. O'qituvchilarning kompetensiyalarini baholash natijalarini tahlil qilish. Tahlillar asosida pedagogik faoliyatga o'zgartirishlar kiritish.

O'quv jarayonini rejalashtirish. Ta'lim samaradorligini ta'minlash (ta'lim dasturini amalga oshirish). O'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish. Xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash.

Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi va o'quv-metodik majmualarni amaliyotga joriy qilish. Ta'lim mazmuni. O'qitish metodologiyasi. O'quv faoliyati natijalarini baholash metodologiyasi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktyabr [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
4. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.
5. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi qonuni: 2016-yil 14-sentyabr, O'RQ-406-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3026246>.
6. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni: 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085999>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi

farmoni: 2018-yil 5-sentyabr, PF-5538-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3893445>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori: 2022-yil 11-may, PQ-241-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008665>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3864155>.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2018-yil 5-sentyabr, PQ-3931-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3893416>.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori: 2020-yil 6-noyabr, PQ-4884-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085887>.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2020-yil 13-noyabr, PQ-4860-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5044711>.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2019-yil 27-noyabr, PQ-4537-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4613683>.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumta’lim maktablari uchun muqobil darsliklarni yaratish va ulardan foydalanish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish mexanizmini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2019-yil 5-aprel, 281-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4273357>.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha hamda umumta’lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2019-yil 25-aprel, 352-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4307901>.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2020-yil 6-iyun, 422-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4885018>.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quv asbob-uskunalari va anjomlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2017-yil 2-iyun, 345-son [Elektron manba]. – URL: <https://www.lex.uz/docs/-3231533>.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalarida uni bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor shaxslarning homiylik xayriya mablag‘lari hisobiga shakllantiriladigan bitiruvchilar jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori: 2019-yil 17-aprel, 321-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4290661>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari

1. Mirziyoyev Sh. M., Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

4. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 507 b.

5. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – 400 b.

6. Mirziyoyev Sh. M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2020. – 400 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Xodjayev B. X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-Standart, 2017. – 416 b.

2. Azizxo‘jayeva N. N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2000. – 52 b.

3. Колесникова И. А. Основы андрагогики. – Москва: Академия. 2007. – 388 с.

4. Кох М. Н., Пешкова Т. Н. Основы андрагогики. – Краснодар: КубГАУ, 2015. – 90 с.
5. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.
6. Ishmuhamedov R. J., Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 279 b.
7. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar-do‘stona muhit yaratish omili. – Toshkent: UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. - 96 b.
8. Anca Sirbu, Basic Andragogy-oriented strategies and communication in online education. Martime University of Const.anta – 2020 // International Conference Knowledge-Based Organization, №2(26). – P. 350–356.
9. Jiban Khadka. Andragogy: Process and context based (PCB) Model for adult learners // International Journal of African and Asian Studies. – 2020, №63. – P. 27–34.

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. avloniy.uz – A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rasmiy sayti.
6. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
7. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
8. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
9. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
10. smartland.maktab.uz – “Smartland” platformasi.
11. educare.uzedu.uz – Ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik, psixologik-pedagogik ma’lumotlar portali.
12. maktab.uz – videodarsliklar kutubxonasi.
13. xanakademiya.uz – Khan Academy Uzbek ta’lim platformasi
14. utube.uz – “Ziyonet” tarmog‘i ta’lim videoportali.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**PEDAGOGIK MARKAZLARI METODIK XIZMAT
KO'RSATISH BO'LIMI METODISTLARI
UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

Toshkent – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

**Pedagogik markazlari metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlarini
uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar: A. Ismailov, M. Ergasheva, M. Abdullayeva, L. Mirzoxidova

Taqrizchilar: Sh. Abdullayeva *Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universitetining tillar
fakulteti dekani, p.f.d., professor*

B. Xaydarov *Toshkent shahar pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
aniq va tabiiy fanlar metodikasi
kafedrasi professori v.b., f.-m.f. n.*

Pedagogik markazlari metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi metodistlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrda navbatdan tashqari yig‘ilishi 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori, Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan maktabgacha va maktab ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarining metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishga xizmat qiladi.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni Pedagogik markazlari metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, ularning zamonaviy boshqaruvga oid yangi bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish, chet tillarini intensiv o'zlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o'quv dasturi quyidagi modullardan iborat:

1. Metodistning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. AKT va mediasavodxonlik.
3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish.
4. Metodistning mas'uliyati va moslashuvchanligi.
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari.
6. Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari.
7. Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari.
8. O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursining maqsadi – Pedagogik markazlari metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlari uchun tashkil qilinadigan kurs ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni maqsad qilgan.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning huquqiy-me'yoriy asoslarini o'rganish;
- uzluksiz metodik xizmatni tashkil qilishda ilg'or texnologiyalar va xorijiy tajribalarni o'rganish;
- tinglovchilarni ta'lim sifatini oshirishning zamonaviy usullari bilan tanishtirish;
- kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash malakalarini rivojlantirish;
- ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash;
- elektron komyunitilarni yaratish va fanlar bo'yicha kollaboratsiyani yo'lga qo'yish;
- xalq ta'limi mutaxassislarini malaka talablariga mos holda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar

Malaka oshirish kursi o'quv rejasining “Metodistning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish”, “AKT va mediasavodxonlik”, “O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish”, “Metodistning mas'uliyati va moslashuvchanligi”, “Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari”, “Ta'limning normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari” “Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari”, “O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari” modullari bo'yicha kurs qatnashchilarining bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar tegishli yo'nalish bo'yicha metodistlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi 36 soatni tashkil etadi. Malaka oshirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi. O'quv modulining har 2 soatini o'zlashtirgani uchun tinglovchiga 1 kredit ball beriladi.

Pedagogik markazlari metodik xizmat ko'rsatish bo'limi metodistlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv rejasidagi modullarning mazmuni

1. Metodistning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish

Kommunikativ ko'nikma tushunchasi va turlari. Samarali muloqot qilish qobiliyati. Nutqning turlari va ulardan oqilona foydalanish. Nutqning ravon va adabiy til qoidalariga muvofiq ifodalanishi. O'zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot shakllarini tanlay olish. O'tmishda o'tgan buyuk notiqlarga xos xislatlar.

O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarshi qo'yish) kabi muloqot maneralarini tanlay olish. Munozaralarda bahslashish madaniyati va odob qoidalariga rioya qilish. Muloqotda o'z fikriga ishonтира olish, argument va qarshi argumentni bayon etayotganda fikrlar ketma-ketligiga va mantiqan izchillikka erishish. Xizmat yuzasidan va xizmatdan tashqari muloqotlarda suhbatdoshni ishonтира shning taktik vositalari. Qaror qabul qilish, duch keladigan muammo va masalalarga oqilona yechim topishda turli fikr va qarashlar.

Suhbat jarayonida tanqidiy mulohazalarni bayon qilish malakasi. Bahs-munozaralar davomida samimiylilikni saqlash. Tashkilot va idoralarda sohaga oid masala va muammolarni madaniy hal qilish vositalari.

2. AKT va mediasavodxonlik

Raqamli ta'lim muhiti. Zamonaviy media texnologiyalarini joriy etishda O'zbekiston Hukumati siyosati, xalqaro tajriba hamda mavjud zamonaviy va ommabop axborot resurslari haqida tushuncha.

Ta'lim portallari, internet ta'lim resurslari, ishonchli tejamkor va mobil dasturiy vositalardan ish va o'qish jarayonida foydalanish. O'rgatuvchi tizimlar (LMS). Onlayn ta'lim platformalari. Onlayn ta'lim platformalari orqali uzluksiz kasbiy mahoratni oshirish. O'rgatuvchi tizimlar (LMS) orqali darslarni tashkil qilish. Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirishda onlayn ta'lim platformalari. Xalq ta'limi tizimidagi ta'lim portallari, internet ta'lim resurslari.

Mediasavodxonlik va mediamadaniyatning pedagoglar faoliyatidagi ahamiyati. Taqdimotlar tayyorlash va asinxron darslarni tashkil etishda mediasavodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish usul va vositalari.

Elektron komyunitilarni yaratish. Maqsadi, vazifalari va mazmunini boyitib borish. Fanlarni o'zaro integratsiyalash (konsensus) asosida raqamlashtirilgan o'quv-metodik resurslarni yaratish, ulardan foydalanish va takomillashtirib borish.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda AKTni qo'llash bo'yicha ilg'or tajribalar.

Kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirishga oid AKT vositalari va internet resurslar. Mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan texnologiyalar.

Onlayn – masofadan o'qitish tizimlari. Kasbiy faoliyatni baholash bo'yicha dasturiy vositalardan maqsadli foydalanish.

3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari

Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari, usul va vositalari. Uzluksiz kasbiy rivojlanishni amalga oshirishda elektron ta'lim (*e-learning*), individual ta'lim trayektoriyasi (*personal learning space*) va muhiti (*personal learning environment*). Kasbiy mahoratni uzluksiz oshirish usullari.

O'quvchilarning fanlarga oid bilimlariga qo'yilgan talablar. O'quvchilarning hayotiy ko'nikmalariga qo'yilgan talablar. Belgilangan talablar shakllanganini aniqlash indikatorlari.

Zamonaviy ilg'or o'quv materiallarini va texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish yo'li bilan ta'limning sifatini oshirishda ta'lim muassasalariga metodik yordam ko'rsatish.

Ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ilg'or ish tajribalarini o'rganish va ularni ommalashtirish, shuningdek, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish, Xalq ta'limi tizimida faoliyat olib borayotgan amaliyotchi o'qituvchilar va metodistlarning ilg'or ish tajribalarini o'rganish, ommalashtirish tartibi.

O'qituvchilarning qiziqishlari va ehtiyojlari asosida nazariya bilan amaliyotni kundalik hayot bilan bog'lash, innovatsion va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy qilinish, eksperimentator o'qituvchilarga metodik yordam berish.

Ta'lim tizimidagi islohotlar. Uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning me'yoriy-huquqiy asoslari. Xalq ta'limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini yanada rivojlantirishda umumiy o'rta ta'lim maktabining metodbirlashmalari, tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari huzuridagi Metodik

kengash faoliyatini rivojlantirish, umumta'lim maktablarida fan oyliklarini o'tkazish, tayanch maktablari faoliyatini tashkil etish va amalga oshiriladigan ishlar mazmunini ehtiyojlar asosida takomillashtirib borish.

Ta'lim muassasasidagi metodik faoliyat – roli, ahamiyati, huquqiy asoslari. Umumiy o'rta ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish. Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, metodistlarning malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini targ'ib qilish va ijrosini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilarga metodik xizmat ko'rsatish tartibi.

O'zini o'zi rivojlantirish va mustaqil kasbiy rivojlanish uchun shaxsiy reja tuzish, pedagoglarning o'zini o'zi rivojlantirish faoliyati natijalarini baholash, o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish. Ehtiyojlarga asoslangan tadbirlar, anjumanlar, shu'ba yig'ilishlari, vebinarlar va debatlarni tashkil etish.

Kollaboratsiya (hamkorlik) maqsadi, mohiyati, vazifasi, turlari. Metodistlar va o'qituvchilarning kompetensiyalari asosida kasbiy ehtiyojlari, o'zaro tajriba almashish, faoliyatini ommalashtirish ishlarini yo'lga qo'yish.

Variativ o'quv rejalarini asosida ta'lim jarayonini tashkil etish. Umumta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni va ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash, o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab o'quvchilarining oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rishlariga keng imkoniyatlar yaratish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini tajriba-sinovdan o'tkazish, o'quv dasturi va taqvim-mavzularni ishlab chiqish, variativ sinflarni tashkil etishda olib boriladigan ishlar tartibi. Variativ o'quv rejalarini amaliyotga tatbiq etishning asosiy yo'nalishlari shakl va metodlari.

Variativ ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv. Tanlov sinflar o'quvchilarining bilimlarini aniqlash yuzasidan nazorat ishlari va monitoringini olib borish. Variativ o'quv rejalarini joriy etishning ahamiyati.

4. Metodistning mas'uliyati va moslashuvchanligi

Mas'uliyat va moslashuvchanlik haqida tushuncha. O'zgarishlarga moslashuvchanlikning modellari va tiplari. Shaxslararo munosabatlarda moslashuvchanlikning ahamiyati. O'zgarishlarga moslashuvchanlik psixologiyasi.

Ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish. Ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o'z kasbiy amaliyotiga joriy eta olish. Kattalar ta'limi nazariyasi. Pedagogik jamoa va uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Pedagogik jamoalarda kuzatiladigan muammolar, pedagogik jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda xodimlarning o'zaro munosabatlari. Pedagogik jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit va uning asosiy indikatorlari.

Metodik xizmat ko'rsatishda psixologik adaptatsiya muammolari. Jamoadagi psixologik holatni aniqlashda diagnostik psixologik trening. STEAM ta'limi va boshqa ta'lim mazmuni. O'z-o'zida mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali texnologiyalari.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari

Inklyuziya va inklyuziv ta'lim tushunchasi. O'quvchilarni jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar birga o'qitishni tashkil qilish. Bunda yuzaga keladigan muammolar va ularni samarali hal etish usullari.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid me'yoriy hujjatlar. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalari.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik jihatlari.

6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari

Qonunchilik normalari, mamlakatda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlar, ta'limning normativ-huquqiy hujjatlari bilan ishlash va kasbiy faoliyatida samarali foydalanish. O'z kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va amaliyotda qo'llay olish. Bola huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va ularga rioya qilishni tashkil etish. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olishda ishtirok etish. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar va uni bartaraf etishga takliflar berish.

7. Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari

Ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qo'llash jarayoni haqidagi tushunchalar, modellar va vositalar. Ta'lim mazmunidagi o'zgarishlar: umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi, Milliy o'quv dasturi komponentlari, fanlar bo'yicha konsepsiyalar, tayanch o'quv rejasi, o'quv dasturlari, o'qitish metodikasi,

baholash metodologiyasi, ta'limdagi ilg'or xorijiy yondashuvlar. Janubiy Koreya, Singapur, Finlandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya tajribalari, Milliy o'quv dasturini amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish.

Metodik xizmatni olib borish. O'quv jarayoni mazmuni va uni tashkil etilishining xususiyatlari. Ta'limda "standart" va "standartlashtirish" tushunchalari. DTSning zaruriyligi, maqsadlari, vazifalari, mohiyati, tuzilishining asosiy tamoyillari.

Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlar (PISA, PIRLS, TIMSS, STEAM va boshqalar). PIRLS va PISA ta'lim sifatini baholash xalqaro tadqiqoti va 2022-yilda o'tkazilgan tadqiqot natijalari. PIRLS xalqaro tadqiqoti topshiriqlarini baholash metodikasi bilan tanishish, o'qish va matnni tushunish savodxonligini rivojlantirish. TIMSS xalqaro baholash dasturining maqsadi, qamrov doirasi, asosiy yo'nalishlari, mazmuni va samaradorligi. Zamonaviy ilg'or o'quv materiallar va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish. Baholashning yangi usul va vositalari. Bilim va ko'nikmalarni baholashning alternativ yondashuvlari. Hayotiy ko'nikmalarning tavsiflari. Bilim va ko'nikmalarni baholashdagi farqlar. Ko'nikmalarni baholashning maqsadlari.

O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarni baholash metodologiyasi. Bilim va ko'nikmalarni baholashga tayyorgarlik ko'rish. Formativ va summativ baholash. O'quvchilarning o'quv tajribasi va ehtiyojlarini baholash. O'quvchilarning o'z-o'zini hamda boshqalarni baholash usul va vositalari. Baholash vositalaridagi mezonlarni ishlab chiqish. Baholash mezonlarining DTSlari talablari va fan mazmuni bilan mosligini ta'minlash. Baholashni amalga oshirishda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini korrektirovka qilish. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari, usul va vositalari. Baholash usullari. STesting dasturlari, test topshiriqlari va ularni tayyorlash.

Ta'limda monitoring va uning ta'lim-tarbiya sifatini boshqarishdagi roli. Monitoring yo'nalishlari. Davlat ta'lim standarti asosida o'quvchilar natijalarini monitoring qilish. Monitoring maqsadlari. Maktabda monitoring turlari. Monitoringni rejalashtirish, tayyorgarlik va o'tkazish bosqichlari.

O'quv va metodik materiallar tayyorlash va ekspertizadan o'tkazish.

O'quv-metodik majmua – darslik, mashq daftari, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, multimedia mahsulotlari, elektron platformalar orqali o'rganuvchi va o'rgatuvchi kontentlar (videodars, virtual laboratoriyalar, elektron dasturlar va boshqa).

Iqtidorli yoshlarni aniqlash bo'yicha fan olimpiadalari va turli tanlovlarni tashkil etish. O'quvchilarni respublika va xalqaro olimpiadalarga tayyorlash, rag'batlantirish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish.

8. O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari

O'quvchilar bilimlari va kompetensiyalarini baholashning turli strategiyalari. Rasmiy va norasmiy, diagnostik va umumiy yondashuvga asoslangan baholash usullari.

Baholash orqali o'quvchilar bilan qayta aloqa o'rnatish. O'quvchilarning o'quv faoliyatini, bilim va kompetensiyalarini baholashning turli usul va vositalari.

O'quvchilarning o'zlarini baholashi, o'quvchilarning boshqa o'quvchilarni baholashi va o'qituvchining baholash yondashuvlari, ulardan samarali foydalanish.

O'quvchilarning kompetensiyalarini baholash natijalarini tahlil qilish. Tahlillar asosida pedagogik faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish.

Ota-onalarni o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari bilan tanishtirish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

Kurs mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Kurs mashg'ulotlarini tashkil etishda quyidagi innovatsion texnologiyalar va metodlardan foydalanish tavsiya etiladi: trening, konkret ta'limiy vaziyatlar tahlili (keysar), loyiha ishi, kichik tatqiqot, muammoli dars, mahorat darslari, mikrodars, ish (rolli) o'yinlari, ijodiy topshiriqlar, faol (interfaol) ma'ruza, videoma'ruza, diskussiya, videokonferensiyalar, "tajriba"+"refleksiya"="rivojlanish" formulasi asosida boshqa o'qituvchilarning tajribalari va o'z faoliyatini refleksiv kuzatish, o'rganish yordamida takomillashtirish, faollashtirish asosida yangi ko'nikmalarni o'zlashtirish.

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar materiallaridan tashqari ilmiy jurnallar, Internet resurslari, onlayn kurslar, sun'iy intellekt manbalari, mobil ilovalar, Virtual reallik (VR) texnologiyalari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz manbalaridan foydalaniladi. Bunda smartdoska imkoniyatlaridan to'laroq foydalanib mashg'ulotlarni o'tish tavsiya etiladi.

Mahorat darslari

Mahorat darslari mutaxassislik moduli doirasida matematika fani va ta'limi doirasidagi ilmiy-uslubiy yutuqlar, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Mahorat darslari dasturi tinglovchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib shakllantiriladi.

Mahorat darslarini oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tekshirish institutlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining muayyan ilmiy-pedagogik salohiyatga ega

bo'lgan professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, xorijlik mutaxassislar, darslik mualliflari yoki tajribali amaliyotchi maktab o'qituvchilari tomonidan davra suhbat, interaktiv ma'ruza, jonli dars yoki dars-imitatsiya shaklida o'tkazilishi mumkin.

Shuningdek, mahorat darslarini o'tkazishning yuqorida keltirilgan imkoniyatlari cheklangan holatlarda, mahorat darslari malaka oshirish guruhi tinglovchilari ishtirokida, tajriba almashish maqsadida ham o'tkazilishi mumkin. Tinglovchilar tomonidan tashkil qilingan mahorat darslari oxirida guruh darsning afzallik va kamchilik tomonlarini tahlil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy hujjatlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktyabr [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O’RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori: 2020-yil 6-noyabr, PQ-4884-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085887>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2019-yil 27-noyabr, PQ-4537-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4613683>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3864155>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2018-yil 5-sentyabr, PQ-3931-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3893416>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nodavlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2017-yil 15-sentyabr, PQ-3276-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3343077>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori: 2017-yilning 13-sentyabr, PQ-3271-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3338600>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni: 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085999>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” farmoni: 2017-yil 5-iyul, PF-5106-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3255680>.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha hamda umumta’lim tashkilotlari faoliyatini tekshirish ishlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2019-yil 25-aprel, 352-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4307901>.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2017-yil 15-mart, 140-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3137130>.

Asosiy adabiyotlar

1. Ergasheva M., Pardayeva M. Milliy o‘quv dasturini amaliyotga joriy etish: Biologiya fani o‘qituvchi va metodistlari uchun metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 76 b.

2. Ergasheva M. Xalqaro baholash dasturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 54 b.

3. Eshqobilov S. O'quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma. – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

4. Ismailov A., Axmedov X., Karimberdiyev Q. PISA 2018 xalqaro dasturning o'qish savodxonligi qamrov doirasi. Metodik qo'llanma. – Toshkent: Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi matbaa bo'limi, 2021. – 90 b.

5. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog'ayeva G., Qosimova Z. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun mo'ljallangan test topshiriqlari to'plami. Axborotnoma 1-son. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. – 22 b.

6. Ishmuhammedov R. J., Yuldashev M. A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 157 b.

7. Ishmuhammedov R. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. – Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.

8. Rustamova N. Mediata'lim va mediamadaniyat: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Muharrir, 2015. – 149 b.

9. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007. – 218 b.

Elektron manbalar

1. gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
5. avloniy.uz – A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rasmiy sayti.
6. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
7. emaktab.uz – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining raqamli ta'lim platformasi.
8. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta'lim platformasi.
9. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
10. smartland.maktab.uz – “Smartland” platformasi.
11. educare.uzedu.uz – ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik, psixologik-pedagogik ma'lumotlar portali.
12. maktab.uz – videodarsliklar kutubxonasi.
13. xanakademiya.uz – Khan Academy Uzbek ta'lim platformasi.
14. utube.uz – “Ziyonet” tarmog'i ta'lim videoportali.

15. ziyonet.uz – axborot ta'lim portali
16. wikipedia.org – Vikipediya ochiq ensiklopediyasi.
17. oecd.org – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) sayti.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**UMUMTA'LIM MAKTAB KUTUBXONA RAHBAR VA
XODIMLARINI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH
KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

Toshkent – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI

**Umumta'lim maktab kutubxona rahbar va xodimlarini uzluksiz kasbiy
rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar: M. Ergasheva, A. Gaffarov, I. Mexmonov

Taqrizchi: I. Umarova *Toshkent shahar pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy
markazining axborot-resurs markazi
rahbari*

Umumta'lim maktab kutubxona rahbar va xodimlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrda navbatdan tashqari yig‘ilishi 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son va 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmonlari, 2018-yil 5-sentyabrdagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-son, 2017-yilning 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-son, 2019-yil 7-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-son hamda 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan maktabgacha va maktab ta'limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida maktabgacha va maktab ta'limi tizimi muassasalari pedagog kadrlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, kutubxona faoliyatini tashkil etishning normativ-huquqiy hujjatlari, kutubxona faoliyatida muloqot madaniyati, kutubxona ish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, davlat tilida ish yuritish, umumta'lim maktab kutubxonalari ishini samarali tashkil etish va boshqarishni o'qitish metodikasi, zamonaviy usullardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishni o'z ichiga oladi va ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular maktab kutubxonalari rahbar va xodimlari malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga

qo'yiladigan malaka talablari va o'quv rejasi asosida shakllantirilgan bo'lib, maktab kutubxonalari rahbar va xodimlari faoliyatiga oid zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahorati va faoliyatini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o'quv dasturi quyidagi modullardan iborat:

1. Kutubxona xodimining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik.
3. O'zini-o'zi rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari.
4. Kutubxona xodimining mas'uliyati va moslashuvchanligi.
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari.
6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari.
7. Elektron kataloglar, resurslar va ma'lumotlar bazalari bilan ishlashdagi yangiliklar.

Kurs hajmi

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining davomiyligi 30 soatni tashkil etadi. Kursning ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan tinglovchilarga davlat namunasidagi sertifikat beriladi. O'quv modulining har 2 soatini o'zlashtirgani uchun tinglovchiga 1 kredit ball beriladi.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi:

Maktab kutubxona xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining maqsadi kutubxona xizmatini ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni muntazam yangilash, malaka talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalari:

- tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni va kutubxona xizmatini ko'rsatish jarayonlarini tashkil etishning normativ-huquqiy asoslarini tushuntirish;
- maktab kutubxonalari xodimlarini xizmat ko'rsatishning texnologiyalari va xorijiy tajribalari bilan tanishtirish;
- maktab kutubxonalari xodimlarining kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- maktab kutubxonalari xodimlarini davlat tilida ish yuritishni o'rganishga yo'naltirish;

- malaka talablariga mos holda maktab kutubxonalari xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar asosida uzluksiz rivojlantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

O‘quv modullari bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar “Maktab kutubxonalari rahbar va xodimlari malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari” bilan belgilanadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi bo‘yicha tinglovchilar quyidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- ta’limiga oid hamda maktab kutubxonalari xodimlarining faoliyatini takomillashtirishga doir amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni, shu sohadagi yangiliklarni;

- kutubxonachilik ishi nazariyasi va amaliyotini, metodik ishlarni tashkil etishni va uning samaradorligini oshirish usullarini;

- kutubxona moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish ishlarini tashkil qilish hamda uning bajarilishi ustidan nazorat olib borishni;

- davlatimiz va xorijiy davlatlar ilm-fanining bibliografiya va axborot sohasidagi yutuqlari hamda maktab kutubxonalari faoliyatini tashkil etish texnologiyasini;

- kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishni, ichki tartib-qoidalariga rioya etilishini ta’minlanishni;

- innovatsion faoliyat asoslarini **bilishi**;

- davlatimiz va xorijiy davlatlar maktab kutubxonalari xodimlarining ishini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni joriy etish bo‘yicha rahbariyatga tegishli takliflar tayyorlash;

- elektron katalogdan foydalangan holda maktab kutubxonalarida xizmat ko‘rsatishning yangi turlarini, ulardan foydalanishni ta’minlash bo‘yicha yangi texnologiyalar, boshqarish metodlarini yaratishni ko‘zda tutuvchi yangiliklarni joriy etish;

- maktab kutubxonalari xodimlarining ish faoliyatida mavjud bo‘lgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish choralari haqida rahbariyatga takliflar kiritish;

- maktab kutubxonalari xodimlariga yuklatilgan vazifa va kasbiy majburiyatlarni bajarish, uning ish faoliyatini samarali tashkil etish hamda ijro intizomiga rioya qilish;

- maktab kutubxonalari xodimlari yillik va istiqbol ish rejalarini shakllantirish, ularning o'z vaqtida sifatli bajarilishini nazorat qilish;

- kutubxonaning axborot izlash tizimlarini yaratish ishlaridagi innovatsion jarayonlarni bibliografik, axborot, metodik, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga joriy etilishini amalga oshirish;

- maktab kutubxonalari xodimlariga ajratilgan mablag'lardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash hamda uning mulkiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;

- maktab kutubxonalari faoliyatiga tegishli yangiliklardan foydalanish **ko'nikmalariga;**

- faoliyatida innovatsion texnologiyalarni qo'llash;

- foydalanuvchilarning kutubxona-bibliografiya xizmatlariga ehtiyojini aniqlash;

- maktab kutubxonalari faoliyatini avtomatlashtirishga taalluqli ishlarda qatnashish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini umumlashtirish, ilg'or ish tajribasini muassasa faoliyatida joriy etishga ko'maklashish;

- maktab kutubxonalari xodimlari hamda foydalanuvchilari uchun seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar, davra suhbatlarini tashkil qilish **malakalariga;**

- uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalardan kasbiy faoliyatda foydalanish;

- foydalanuvchilarni yangi asarlardan individual va jamoaviy tarzda xabardor qilish hamda bibliografik ma'lumot va axborotlar etkazib berish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim.

Umumta'lim maktab kutubxona rahbar va xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

1. Kutubxona xodimining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish

O'zbekiston Respublikasining kutubxona sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Maktab kutubxonalari rahbar va xodimlarining lavozim yo'riqnomalari, kutubxonadan foydalanish qoidalari. Kutubxona ishi bo'yicha hujjatlar oqimini shakllantirish ma'lumotlarini tayyorlash metodikasi, kutubxona ish rejalarida belgilangan vazifalarni statistik tahlili tartibi.

Kutubxonada o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy va boshqa tadbirlarni tuzish va o'tkazish metodikasi. "Kitobxon maktab" turkumidagi tadbirlarni tashkil etish yo'riqlari. Umumta'lim muassasalari kutubxonalarining ko'rgazma bilan bog'liq ishlari.

2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik

Kutubxona faoliyatida amaliy dasturiy vositalardan foydalanish. Elektron hujjatlarni yaratishda tegishli dasturiy vositalardan foydalanish. Microsoft office: Power-Point, Access, Excel dasturlari.

Mualliflik dasturlari yordamida elektron kitoblar yaratish. Kutubxonadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishda mualliflik dasturlaridan foydalanish, iSpring Suite, FlipPDF va boshqa dasturlar yordamida interaktiv 3D kitoblar yaratish texnologiyasi. Kutubxona faoliyatini rivojlantirishga ko‘mak beruvchi tarqatma materiallar tayyorlash texnologiyasi (EdrawMax dasturi misolida).

Ta’lim portallari onlayn kutubxona resurslari va ulardan ish jarayonida foydalanish. Ziyonet portali resurslari (library.ziyonet.uz – elektron kutubxona, foreign.ziyonet.uz – xorijiy tillarni o‘rganish, ask.ziyonet.uz – savol-javoblar xizmati, abituriyent.ziyonet.uz – abituriyentlar uchun foydali ma’lumotlar) bilan ishlash.

Kutubxona faoliyatida elektron ta’lim kontentlarini yaratish (Web Page Maker, Auto Play Media Studio va boshqa dasturlar yordamida).

3. O‘z-o‘zini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari

Ko‘rgazmalarning turlari: umumta’lim maktab kutubxonalarida ko‘rgazma ishlarini tashkil etish.

Umumta’lim maktablari kutubxonalarini ishini to‘g‘ri tashkil etishda malakali mutaxassislar bilan ta’minlanishning ahamiyati, kutubxona xodimlariga qo‘yiladigan kasbiy talablar. Kutubxona xodimlarining tashkilotchilik qobiliyatlari. Kutubxona faoliyatida boshqa kutubxonalar, milliy madaniy markazlar bilan o‘zaro hamkorlikni tashkil etish.

4. Kutubxona xodimining mas’uliyati va moslashuvchanligi

Maktab kutubxonalarini ishini samarali tashkil etish vositalari. Umumta’lim muassasasi kutubxonasini rivojlantirish konsepsiyasi asosida o‘quvchilar va o‘qituvchilarning bilim olishi hamda samarali axborot bilan ta’minlanishi jarayoni. Zamonaviy kutubxonalarni tashkil etish. Kutubxona ishini tashkil etishda ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanish.

Maktab kutubxonalarining ish rejasi: maqsadlar, vazifalar va faoliyatning asosiy yo‘nalishlari. Maktab kutubxonalarining yillik ish rejasini tuzish.

Rejalashtirish bosqichlari: maqsadlar va vazifalarni shakllantirish, ustuvor yo‘nalishlarni tanlash, rejaning shaklini ishlab chiqish faoliyatini nazorat qilish.

5. Inklyuziv ta’limni joriy etish masalalari

Inklyuziya va inklyuziv ta'lim tushunchasi. O'quvchilarni jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar, birga o'qitishni tashkil qilish. Bunda yuzaga keladigan muammolar va ularni samarali hal etish usullari.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid me'yoriy hujjatlar. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan bir qatorda ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalari.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning psixologik jihatlarini.

6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari

Qonunchilik normalari, mamlakatda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash va kasbiy faoliyatda samarali foydalanish. O'z kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va amaliyotda qo'llay olish. Bola huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va ularga rioya qilishni tashkil etish. Ta'lim muassasalarida korrupsiyaning oldini olishda ishtirok etish. ARM fondidan foydalanish va kitoblarni tarqatishda shaffoflikni yo'lga qo'yish. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar va ularni bartaraf etishga takliflar berish.

7. Elektron kataloglar, resurslar va ma'lumotlar bazalari bilan ishlashdagi yangiliklar

Axborot-kutubxona resurslarini butlash, kataloglashtirish va tizimlashtirish. Elektron kataloglar kutubxona faoliyatini tashkil etish asosi sifatida. Elektron kataloglarning asosiy vazifalari. Elektron katalog tarkibi. Elektron katalogdan foydalanish va yuritish texnologiyasi. Kutubxona faoliyatiga oid resurslar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash. Foydalanuvchilarda axborot madaniyatini tarbiyalash: kitobxonlarni ma'lumot-tahliliy materiallar bilan ishlashga o'rgatish.

Ilg'or kutubxona texnologiyalarini tatbiq etish. ARMda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish. Rivojlangan mamlakatlardagi raqamli kutubxonalar faoliyati. Yig'ma bibliografik ma'lumotlar bazasini shakllantirish va yuritish.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia mahsulotlari hamda boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktyabr [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O’RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi farmoni: 2017-yil 5-iyul, PF-5106-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3255680>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3864155>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida”gi qarori: 2019-yil 7-iyun, PQ-4354-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4372449>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to’g’risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

Asosiy adabiyotlar

1. G'aniyeva D. A. Ta'lim maqsadlarini amalga oshirishda axborot-resurs markazlarining roli. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009.
2. G'aniyeva D. A., Ratner R. I. Ta'lim tizimidagi axborot-kutubxona jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.

3. G‘aniyeva D. A. Axborot-kutubxona muassasalarida kitobxonlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda madaniy-ma’rifiy tadbirlarning roli – Toshkent: Tafakkur, 2017. – 440 b.

4. G‘aniyeva D. A., Umarova I. P. Axborot-resurs markazi. O‘UM-2017.

5. G‘aniyeva D. A., Umarova I. P. Axborot-resurs markazi. O‘UM-2018.

6. G‘aniyeva D. A., Umarova I. P. Kutubxona rahbar va xodimlari. O‘UM-2020.

Elektron ta’lim-tarbiya resurslari

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.

5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.

6. uza.uz – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.

7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.

8. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.

9. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.

10. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrda
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI

“BARKAMOL AVLOD” BOLALAR MAKTABI TO'GARAK
RAHBARLARI UCHUN UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH
KURSINING

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

Toshkent – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI

**“Barkamol avlod” bolalar maktabi to‘garak rahbarlari uchun uzluksiz
kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar: M. Ergasheva, A. Gaffarov

Taqrizchi: L. Yunusov *Toshkent shahar pedagoglarni yangi
metodikalarga o‘rgatish milliy markazi
ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar
kafedrasi dotsenti v.b.*

“Barkamol avlod” bolalar maktabi to‘garak rahbarlari uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti kengashining kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi navbatdan tashqari 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

Kirish

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son va 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarori hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan maktabgacha va maktab ta'limi tizimida rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlarning professor-o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi Davlat siyosati, to'garak rahbarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, to'garak rahbari mas'uliyati va moslashuvchanligi, inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, tarbiyaviy ishlar metodikasi, o'qituvchining kasbiy kompetensiyalarini baholashlarni o'z ichiga olib, ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Mazkur dastur doirasida o'quv modullarining taqdim etilayotgan mazmuni tinglovchilarning zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini muntazam yuksaltirishni nazarda tutadi.

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o'quv dasturi quyidagi modullardan iborat:

1. To'garak rahbarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. AKT va mediasavodxonlik.
3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari.
4. To'garak rahbari mas'uliyati va moslashuvchanligi.
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari.
6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari.
7. To'garak mashg'ulotlarini tashkil etish va olib borish metodikasi.
8. To'garak rahbarining kasbiy kompetensiyalarini baholash.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi – “Barkamol avlod” bolalar maktabining badiiy ijodiyot to'garak rahbarlarining zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar va samarali metodlardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish.

Kursning vazifalari:

- “Barkamol avlod” bolalar maktabining badiiy ijodiyot to'garak rahbarlarining nazariy va amaliy, metodik tayyorgarlik darajasini orttirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni rivojlantirish;
- “Barkamol avlod” bolalar maktabining badiiy ijodiyot to'garak rahbarlarida dars jarayonida samarali metodlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

- badiiy ijodiyot to'garagi a'zolarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va o'qitish metodlarini;
- badiiy ijodiyot to'garagi a'zolari bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va nazorat turlarini;
- dars ishlanmalarini ishlab chiqishga qo'yilgan zamonaviy talablarni;
- maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o'tkazish yo'llarini;
- to'garak mashg'ulotlarida buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosidan foydalanishni;
- to'garak mashg'ulotlarida iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash metodlarini **bilishi;**

- to‘garak mashg‘ulotlarida o‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llay olish;
- zamonaviy talablar asosida dars ishlanmasini ishlab chiqish;
- to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash va nazorat topshiriqlarini tuzish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi**;
- to‘garak mashg‘ulotlarida ochiq darslarni o‘tkazish va ularni tahlil qilish;
- to‘garak mashg‘ulotlarini o‘tkazishda iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlash **malakalariga ega bo‘lishi**;
- ilg‘or pedagogik texnologiyalardan kasbiy faoliyatida foydalanish;
- o‘z ustida ishlash va pedagogik mahoratini muntazam oshirib borish **kompetensiyalariga ega bo‘lishi** lozim.

Kursning ta’limdagi o‘rni

Tinglovchilarda “Barkamol avlod” bolalar maktabida to‘garaklarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasini o‘rgatish hamda amalda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ta’lim samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi 36 soatni tashkil etadi. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi bo‘yicha tegishli ta’lim dasturlarini to‘liq o‘zlashtirgan kurs qatnashchilarga sertifikat beriladi. O‘quv modulining har 2 soatini o‘zlashtirganlik uchun tinglovchiga 1 kredit ball beriladi.

1. To‘garak rahbarining kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish

Boshqalar fikrini hurmat qilish. O‘zgalar fikriga ta’sir etuvchi (ishontira olish, to‘g‘rilash, fikrini qarama-qarshi qo‘yish) muloqot madaniyati va undan samarali foydalanish.

O‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan (qo‘llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot madaniyati. O‘qituvchining kasbi – pedagogik kompetentligi.

Ta’lim jarayoni sifatini oshirish va o‘qituvchilarning o‘quv ehtiyojlarini qondirishda o‘z hamkasblari bilan AKTning turli vositalari yordamida muloqot o‘rnatish va hamkorlik qilish.

To‘garak rahbarining global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlari va ulardan ta’lim sifatini oshirishda foydalanish.

Boshqalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga qaratilgan muloqot madaniyati.

2. AKT va mediasavodxonlik

Axborotlashtirish sohasidagi normativ-huquqiy asoslar. Axborot texnologiyalariga oid XXI asrga xos bo'lgan hayotiy ko'nikmalar. Ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan axborot resurslari. Kasbiy faoliyatda qo'llanadigan axborot texnologiyalari, ulardan foydalanish usul va vositalari. Ta'lim jarayoniga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasidagi yangiliklar. Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llashning tajribada sinalgan va ilmiy asoslangan usul va vositalarini aniqlay olish. Tarmoq texnologiyalari, Internet resurslari, multimedia vositalaridan kasbiy faoliyatida foydalanish. O'z kasbiy mahoratini internet resurslari orqali muntazam oshirish va ta'lim muassasasida AKTni samarali joriy eta olish. Uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasi (LMS).

3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish

O'zini o'zi rivojlantirish va kasbiy o'sish. Uzluksiz qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining asosiy g'oyalari va tamoyillari. Butun hayot davomida ta'lim olish g'oyasi (lifelong learning). Formal va noformal ta'lim shakllari. Kasbiy ehtiyojlarni qondirish va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari, usul va vositalari.

4. To'garak rahbari mas'uliyati va moslashuvchanligi

Mas'uliyat va moslashuvchanlik haqida tushuncha. Rahbar mas'uliyati, Kattalar ta'limi nazariyasi. Kichik va katta guruhlar psixologiyasiga oid qonuniyatlar. Shaxs rivojlanishining diagnostikasi va psixologik xususiyatlari. Shaxs rivojlanishi diagnostikasi usullari. Shaxslararo munosabatlar va ularning xususiyatlari. Intellektual rivojlanish psixodiagnostikasi. Ta'lim jarayonida moslashuvchanlik muammolarini hal qila olish, tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida to'garak rahbari va o'quvchilar o'rtasida kuzatilayotgan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish. Shaxs shakllanishi va intellektual rivojlanishini diagnostika qilishda ijtimoiy-psixologik metodlar.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari

Inklyuziya va inklyuziv ta'lim tushunchasi. O'quvchilarni jismoniy, intellektual, ijtimoiy, emotsional, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'i nazar birga o'qitishni tashkil qilish. Bunda yuzaga keladigan muammolar va ularni samarali hal etish usullari.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid me'yoriy hujjatlar. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarning umumta'lim

maktablarida sogʻlom bolalar bilan bir qatorda taʼlim olishlarini qoʻllab-quvvatlashning turli strategiyalari.

Alohida taʼlim ehtiyojlariga ega oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berishning psixologik jihatlari.

6. Taʼlimga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari

Qonunchilik normalari, mamlakatda taʼlim sohasida olib borilayotgan islohotlar, taʼlimga oid normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash va kasbiy faoliyatida samarali foydalanish. Oʻz kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish va amaliyotda qoʻllay olish. Bola huquqlari toʻgʻrisidagi normativ-huquqiy hujjatlarni va ularga rioya qilishni tashkil etish. Taʼlim muassasalarida korrupsiyaning oldini olishda ishtirok etish. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar va uni bartaraf etishga takliflar berish.

7. Toʻgarak mashgʻulotlarini tashkil etish va olib borish metodikasi

“Barkamol avlod” bolalar maktablariga tegishli meʼyoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni haqida maʼlumotlar hamda ularning ijrosini taʼminlashda toʻgarak rahbarlarining vazifalari. “Barkamol avlod” bolalar maktablari toʻgarak rahbarlarining huquq, burch va vazifalari hamda ularning lavozim majburiyatlari. “Barkamol avlod” bolalar maktablari maktabgacha va maktab taʼlimi tizimining tarkibiy qismi ekani, uning asosiy vazifasi oʻquvchi yoshlarga qoʻshimcha taʼlim va tarbiya berishdan iboratligi, oʻquvchilarning boʻsh vaqtlarini mazmunli oʻtkazish uchun bor imkoniyatni ishga solish zaruriyati.

Oʻquvchi-yoshlarni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalash maqsadida tashkil etilgan “Barkamol avlod” bolalar maktablari faoliyatini amalga oshirishdagi umumiy davlat talablari va modernizatsiya qilingan yoʻnalishlar boʻyicha davlat talablarining mazmun-mohiyati. Toʻgarak rahbarlariga qoʻyilgan talablar. Belgilangan davlat talablari ijrosini taʼminlash asosida ilm-fan, adabiyot, sanʼat va meʼmorchilik, texnik ijodiyot, milliy xalq hunarmandchiligi hamda ekologik sohalarida isteʼdodli yoshlarni tarbiyalash va ularni salohiyatli kasb-hunar egalari qilib tayyorlash masalalari.

Badiiy ijodkorlik yoʻnalishidagi toʻgaraklar mashgʻulotlarida individual, frontal, juftlikda ishlash, katta va kichik guruhlarda ishlash, jamoaviy boʻlib ishlashga oid mashgʻulotlarni tashkil etish. Mashgʻulot turlari: yangi mavzuni oʻzlashtirish, oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalarni mustahkamlash, oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalarni takrorlash, oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalarni tizimga solish va umumlashtirish, oʻzlashtirilgan bilim va koʻnikmalarni nazorat qilish va baholash mashgʻulotlari.

To‘garak xonalarini zamon talabi asosida jihozlashning ahamiyati hamda uni amalga oshirish tartibi. To‘garak a‘zolari qo‘l mehnati bilan tayyorlangan ko‘rgazma, eksponat, modellar, fotolavhalar, buklet, albom va turli xil arxeologik tarixiy topilmalar bilan boyitish yo‘llari va ularni saqlash tartibi. O‘quv-moddiy bazani boyitib borish va zamonaviy texnik vositalardan foydalanish zarurati. To‘garak mashg‘ulotlarining elektron variantlari bankini yaratish va ulardan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish zarurati.

“Barkamol avlod” bolalar maktablarida metodik ishlarga rahbarlik va metodik xizmat uzluksizligini ta‘minlashning tashkiliy-pedagogik asoslari. “Barkamol avlod” bolalar maktablarida metodik xizmatni tashkil etishning ahamiyati. Metodik xizmat turlari. Metodik xizmatni tashkil etish shakl va usullari. Ishchanlik o‘yini asosida metodik o‘quvlarni o‘tkazish texnologiyasi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish tiplari, maktabdan tashqari ta‘limning vazifalari. Kasb-hunarga yo‘naltirish dasturi va uning ijrosini ta‘minlashda to‘garak rahbarining roli. Ularni kasb-hunarga yo‘naltirish bosqichlari, omillari va muammoli masalalarni hal etish yo‘llari. Turli xil kasbiy maslahatlar berish. Kundalik turmushda zarur bo‘lgan hunarlarni o‘zlashtirish yo‘llari. Mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash bo‘yicha o‘tkaziladigan suhbatlar va tadbirlar.

Iqtidorli, turli xil qobiliyatga ega bo‘lgan bolalarni izlab topish yo‘llari, ularni to‘garaklarga a‘zo qilish tartibi, iqtidorli bolalar bilan olib boriladigan qo‘shimcha ishlar mazmuni va ularning ishlarini axborot vositalari, gazetalar, bolalar jurnallarida ommalashtirish yo‘llari. Bolalarni iqtidor, qobiliyatlari orqali kasb-hunar tanlashga to‘g‘ri yo‘naltirish masalalari. Voyaga yetmagan, tarbiyasi og‘ir bolalar psixologiyasini chuqur o‘rganish, to‘g‘ri yondashish va ularni kasb-hunarga, mustaqil hayotga to‘g‘ri yo‘naltirish ishlari, zararli odatlar va giyohvandlikning oldini olish bo‘yicha olib boriladigan targ‘ibot ishlari.

8. O‘quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari

Baholash ta‘lim jarayonining ajralmas qismi sifatida. To‘garak rahbarining kasbiy kompetensiyasini baholash usullari va vositalari. To‘garak rahbarlarining kompetensiyalarini baholash natijalarini tahlil qilish. Tahlillar asosida to‘garak rahbari faoliyatiga o‘zgartirishlar kiritish.

Dasturning axborot-metodik ta‘minoti

Modullarni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmualar, ilmiy jurnallar, internet resurslari, multimedia vositalari hamda boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktyabr [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O’RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
4. O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O’RQ-139-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni: 2020-yil 6-noyabr, PF-6108-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085999>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi qarori: 2022-yil 11-may, PQ-241-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008665>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni: 2018-yil 5-sentyabr, PF-5538-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3893445>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” farmoni: 2019-yil 6-sentyabr, PF-5812-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4500926>.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni:

2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori: 2017-yil 27-iyul, PQ-3160-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4071203>.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2018-yil 14-avgust, PQ-3907-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3864155>.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2018-yil 5-sentyabr, PQ-3931-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3893416>.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2019-yil 27-noyabr, PQ-4537-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4613683>.

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalarida uni bitirib, yuksak yutuqlarga erishgan nomdor shaxslarning homiylik xayriya mablag‘lari hisobiga shakllantiriladigan bitiruvchilar jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori: 2019-yil 17-aprel, 321-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4290661>.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori: 2020-yil 6-noyabr, PQ-4884-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5085887>.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2020-yil 13-noyabr, PQ-4860-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5044711>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 508 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Akbarov X., Shafiyev M., Xolmirzayeva F., G. Karimova. Ma’naviy va ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga oid me’yoriy hujjatlar to‘plami. – Toshkent: A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

2. Abduquddusov O. O‘quv muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolari. – Toshkent, 2002.

3. Aslanova M. Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini boshqarish. Toshkent: A. Avloniy nomidagi XTXQTMOMI innovatsion pedagogik texnologiya va nashr ishlari bo‘limi. – Toshkent, 2008.

4. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalari me’yoriy hujjatlari bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2011.

5. Maktabdan tashqari ta’limga qo‘yilgan davlat talablarining takomillashtirilgan loyihasini tajriba-sinovdan o‘tkazish bo‘yicha hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2011.

6. Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida uzluksiz uslubiy xizmat ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirishda uslubchi mas’uliyatini oshirish bo‘yicha tavsiyalar. – Toshkent, 2007.

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. avloniy.uz – A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rasmiy sayti.
6. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
7. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
8. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
9. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
10. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.
11. yaklass.ru – maktab o‘quvchilari uchun raqamli ta’limiy resurs, Rossiya.
12. hunar.uz – “Hunarmand” uyushmasi sayti.

13. artshop.uzedu.uz – O‘zbekistonda qo‘lda tayyorlangan buyumlarni sotib olish va sotish bozori.

14. uzbamarkaz.uz – Badiiy ta’lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi.

15. babm.uz – “Barkamol avlod” respublika bolalar maktabi sayti.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**MAXSUS MAKTAB-INTERNATLAR ("MURUVVAT" UYLARI)
TARBIYACHILARINI TABAQALASHTIRILGAN UZLUKSIZ
KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

(Tajriba-sinov tariqasida)

TOSHKENT – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

**Maxsus maktab-internatlar (“muruvvat” uylari) tarbiyachilarini
tabaqalashtirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv
dasturi**

Tuzuvchilar: A. Ismailov, M. Ergasheva, X. Malikova, M. Abdullayeva,
I. Xurramov, D. Azamatova, A. Gaffarov

Taqrizchilar: Islam Hassan Mahmoud Hassan Elhadary	<i>A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektorining xorijiy maslahatchisi</i>
Sh. Abdullayeva	<i>Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining tillar fakulteti dekani, p.f.d., professor</i>

Maxsus maktab-internatlar (“Muruvvat” uylari) tarbiyachilarini tabaqalashtirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi navbatdan tashqari 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy standartlari asosida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan maxsus ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida maxsus maktab-internatlar ("Muruvvat" uylari) tarbiyachilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yil 14-noyabrdagi 540-son buyrug'i asosida o'tkazilgan diagnostik test natijalari ko'ra, tarbiyachining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'limdagi ilg'or yutuqlarni o'rganish, maxsus ta'limning huquqiy-me'yoriy asoslari bo'yicha bilimlarini oshirish, inklyuziv ta'limni tashkil etish, o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, maxsus ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish, hamkorlikda ishlash hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni naxsus maktab-internatlar ("Muruvvat" uylari) tarbiyachilarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Maxsus maktab-internatlar (“Muruvvat” uylari) tarbiyachilarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi namunaviy o‘quv dasturi, xalq ta’limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining kasbiy standartida belgilangan kompetensiyalar va diagnostik test natijalari asosida IV tabaqada shakllantirilgan tayanch o‘quv rejasining 2 ta bloki tarkibidagi quyidagi 8 ta o‘quv modullari mazmunini o‘z ichiga oladi:

I. Maxsus ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish

- 1.1. Tarbiyachining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish asoslari.
- 1.2. Maxsus ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar.
- 1.3. Maxsus ta’limning huquqiy-me’yoriy asoslari.
- 1.4. Inklyuziv ta’limni tashkil etish asoslari.

II. Mutaxassislik fanlari

- 2.1. Mutaxassislik fanlari nazariy-amaliy asoslari.
- 2.2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi.
- 2.3. Maxsus ta’limda axborot-kommunikatsion texnologiyalar.
- 2.4. Tanlov fanlari.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursining maqsadi – maxsus ta’limda ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Kursning vazifalari – tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmunini keng tushuntirish, ta’lim-tarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil etishning metodologik asoslarini singdirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar maxsus maktab-internatlar (“Muruvvat” uylari) tarbiyachilarining kasb standarti asosida, tegishli yo‘nalish bo‘yicha maxsus maktab-internatlar (“Muruvvat” uylari) tarbiyachilarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining hajmi **144 soatni** tashkil etadi. Mazkur soatlar har bir tabaqa uchun **3 yillik** muddat kesimida quyidagicha taqsimlanadi.

I tabaqa ta’lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan pedagog kadrlar uchun 3 yil davomida 108 soat soat ishlab chiqarishdan

ajralmagan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

II tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari yaxshi bo'lgan pedagog kadrlar uchun 72 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

III tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari qoniqarli bo'lgan pedagog kadrlar uchun 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 72 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

IV tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari past bo'lgan pedagog kadrlar uchun 108 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

Maxsus maktab-internatlar (“Muruvvat” uylari) tarbiyachilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o‘quv rejasidagi modullarning mazmuni

I. MAXSUS TA’LIM VA TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

1.1. Tarbiyachining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish asoslari

O‘zgalar fikrini hurmat qilish. O‘zgalar fikriga ta’sir etuvchi (ishontira olish, to‘g‘rilash, fikrni qarama-qarish qo‘yish) muloqot maneralari. O‘zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o‘zaro munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan (qo‘llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot shakllari. Ta’lim jarayoni sifatini oshirish va ta’lim oluvchilarning o‘quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘z hamkasblari bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalari yordamida aloqa o‘rnatish va hamkorlik qilish. Ta’lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish. O‘zgalar bilan o‘zaro hurmat asosiga qurilgan munosabatlar. O‘zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda axloq normalari. Milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas’uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qilish.

1.2. Maxsus ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar

Maxsus ta’limda o‘qitish muhitiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar. Maxsus ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta’lim sifatini oshirish, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, maktab ta’limi sifatini yaxshilash va ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ta’lim samaradorligini oshirish.

Xorijiy davlatlarning maxsus ta’limi jarayonida yuz berayotgan turli o‘zgarishlarga va yangilanish jarayonlari. O‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish. Barqaror taraqqiyot konsepsiyasi. Barqaror taraqqiyot ta’limi.

Ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muammolari va yechimlari. O‘quv-metodik jarayonni tashkil etishda o‘qituvchining roli va funksiyalari.

1.3. Maxsus ta’limning me’yoriy-huquqiy asoslari

Qonunchilik normalari hamda ularga og‘ishmay rioya qilish. Ta’limga oid normativ-huquqiy hujjatlar. Kasbiy faoliyatga doir normativ-huquqiy hujjatlar. Bolalarning huquqlari to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlar. Ish yuritish bilan bog‘liq huquqiy asoslar. Ish yuritishning qonunchilikka muvofiq olib borilishi. Mavjud tartibga muvofiq oldindan belgilangan muddatlarda ish yuritish. Ish yuritishda shaffoflik va ommaviylik tamoyillari. Ta’lim muassasasining hisobot, shu jumladan, moliyaviy hisobot masalalariga taalluqli qonunchilik bazasi.

1.4. Inklyuziv ta'lim asoslari

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid qonun hujjatlarini bilish va ularning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalari. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan tadbirlar. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarning dunyoqarashi va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari.

II. MUTAXASSISLIK FANLARI

2.1. Mutaxassislik fanlarining nazariy-amaliy asoslari

Mutaxassislik fani va ta'limning asosiy nazariyalari, ularni amaliyotga tatbiq etishning samarali usul va vositalari. O'quvchilarning turli ta'limiy ehtiyojlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari. Yoshga doir pedagogika, psixologiya asoslari, bolalar bilan ishlash usul va metodlari. Ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Bolalar tarbiyasi va ta'lim rivojlanishida psixolog Vigotskiy Lev Semyonovich (1896–1934)ning “Eng yaqin rivojlanish sohasi” (Zone of Proximal Development) nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra, ta'lim oldinda borishi va bolaning rivojlanishini o'ziga ergashtirishi zarurligi. Bola yangi ko'nikmalarni o'zlashtirganidagina rivojlanish yuzaga kelishi. Bola yangi ko'nikmalarni real hayotdan ajralmagan holda, o'zida bor bo'lgan bilimlar asosida o'zlashtirishi.

L. S. Vigotskiy “yetilish jarayonidagi, ertaga yetiladigan, hozir paydo bo'layotgan holatdagi funksiyalarni rivojlanish mevasi deb emas, rivojlanish kurtaklari, gullari, ya'ni endigina yetilib kelayotgan funksiyalarni “Eng yaqin rivojlanish sohasi” deb tushuntirganining mohiyati.

Konstruktivizm pedagogikada nazariy hamda amaliy yo'nalish sifatida. Bilimlarni ta'lim oluvchilar tayyor holda emas, har kim hayoti davomida o'z atrof-muhitini tushunishni konstruksiyalashi. Konstruktivist o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari, o'qituvchining ta'lim oluvchilarning muammoli, yo'naltirilgan tadqiqot faoliyatida konsultant, tashkilotchi va muvofiqlashtiruvchi sifatidagi roli.

Bola intellektining rivojlanishi (J. Piaje), eng yaqin rivojlanish sohasi (L. S. Vigotskiy), o'quv maqsadlari taksonomiyasi (B. Blum), intellektning ko'p turliligi (G. Gardner), konstruktivizm (Arends) haqidagi ma'lumotlar va ulardan amalda foydalanish pedagogikada nazariy hamda amaliy yo'nalish sifatida.

Umumiy oʻrta taʼlimning Davlat taʼlim standartlarida hamda Milliy oʻquv dasturida belgilangan oʻquvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy koʻnikmalarini rivojlantirishga yoʻnaltirilgan usullarni amaliyotga tatbiq etishning samarali yoʻllari. Oʻquv dasturining mazmuni mos keladigan samarali usullarini tanlash, interfaol metodlarni qoʻllash. Pedagogik va psixologik bilimlardan foydalanib pedagogik vaziyat va hodisalarni kuzatib borish, ularni tahlil qilish.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini fanga singdirish. Dars vaqtini oqilona rejalashtirish, darsning maqsad, shakl va usullarni aniqlash. Oʻquv reja va davlat taʼlim standartlari, shuningdek, maktab ishi bilan bogʻliq boshqa hujjatlar (taʼlim tizimining tuzilishi va vazifalari, maqsadlari, huquqiy asoslari, taʼlim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyati).

Oʻquvchilarga metakognitiv strategiyani oʻrgatishda turli yondashuvlardan, shu jumladan, rejalashtirish, nazorat qilish va oʻz-oʻzini baholash koʻnikmalarini rivojlantirish strategiyalaridan foydalanish. Individual taʼlim ehtiyojlaridan kelib chiqib, oʻquvchilarga oʻz vaqtida differensial yordam berish. Dars mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bogʻlash. Dars davomida har bir oʻquvchiga oʻz gʻoyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini berish. Oʻquvchilarni darsda faol qatnashishga ruhlantirishda ularning shaxsiy qiziqishlaridan foydalanish. Oʻquvchilarni darsga qiziqtirishda turli usullardan foydalanish. Sinfda samarali muloqotni taʼminlash.

Taʼlim-tarbiya jarayonida motivatsion vaziyatlarni yaratish, ularning samaradorligini tahlil qilish va kerakli natijalarga erishishda oʻz harakatlarini oʻzgartirish.

Sinfni boshqarish. Huquqiy madaniyat, odob va axloq meʼyorlarga rioya qilish, professional axloq qoidalari, ijtimoiy kompetensiyalarga ega boʻlish, eng yuqori sifat standartlariga erishishga intilish, sifatga eʼtibor berish; innovatsiyalarni qabul qilish; oʻzgarishlarni qabul qilish va ularga moslashish istagi; oʻz tajribasini doimiy ravishda tahlil qilish va kasbiy amaliyotga oʻzgarishlar kiritish; barcha bolalar oʻrganishi va rivojlanishi mumkinligiga ishonch, har bir bolaning shaxsini hurmat qilish.

Taʼlim natijalarini baholash va diagnostika qilish uchun turli usul hamda vositalardan foydalanish. Oʻquvchilarning bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam va tizimli ravishda kuzatib borish. Oʻquvchilar erishgan yutuqlarni, natijalarni tahlil qilish. Dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish.

Oʻquvchilar bilimini baholash natijasida olingan maʼlumotlarni inobatga olgan holda darsning aniq, oʻlchamli maqsad va natijalarini aniqlab, dars rejasini ishlab chiqish. Darsning maqsadlari, oʻquvchilarning yosh xususiyatlari va oʻzlashtirishiga mos keladigan dars shakllari va usullarini rejalashtirish. Tegishli

o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish. Ta'limning aniq va o'lchanadigan natijalarini, shuningdek, ushbu natijalarga erishishda aniq muddatlar (yil, chorak, dars) uchun vazifalarni aniqlash, ularni rejalarda shakllantirish. O'quvchilarning bilimni baholash natijasida olingan ma'lumotlarni inobatga olgan holda rejalarni muvofiqlashtirish.

2.2. Tarbiyaviy ishlar metodikasi

Maxsus maktab, maktab-internatlarda tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari. Sharq mutafakkirlari va jahon namoyandalarining tarbiyaga oid qarashlari. Maxsus maktab, maktab-internatlarda tarbiyaviy ish yo'nalishlarini olib borishdagi o'ziga xosliklar. Maxsus maktablarda ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning ahamiyati, uning mazmuni, mohiyati, jarayonning korreksiyaga yo'naltirilganligi. Imkoniyati cheklangan bolalarning aqliy, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, ekologik, nafosat, jinsiy, gender, Vatanparvarlik va mehnat bo'yicha tarbiyasi, uni shakllantirish usul va vositalari. Tarbiyaning barcha yo'nalishlari bo'yicha oilalarda, ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan hayotiy muammolar.

Maxsus maktablarida tarbiyaviy ish olib borishda interfaol usullardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari. Interfaol usullardan foydalanish orqali o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish.

2.3. Maxsus ta'limda axborot-kommunikatsion texnologiyalar

Raqamli texnologiyalar tushunchasi. Ta'limda raqamlashtirish. Ta'limning raqamli transformatsiyasi. Raqamli pedagogika. Raqamli didaktika. Raqamli darslik. Raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar – elektron doska, elektron jurnal, robototexnika.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga oid dasturiy mahsullar, internet resurslari va ma'lumotlar bazalari. Ta'lim muassasalarida multimedia ta'lim resurslaridan foydalanishning bugungi holati. Internet tarmog'idagi STEAM resurslaridan fanni o'qitishda foydalanish. Kasbiy faoliyatda sun'iy intellekt elementlaridan samarali foydalanish. IoT (internet of things) imkoniyatlari.

Bulutli texnologiyalar (Google, DropBox va boshqalar) va ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullari. Google Docs dasturiy mahsulotlari va ularning imkoniyatlari. Google ilovalari asosida matnli hujjatlar va elektron jadvallarni yaratish hamda birgalikda qayta ishlash. Google Drive va uning imkoniyatlari.

Pedagogik dasturiy vositalar. HotPotatoes, iSpring, Quizy maker dasturlari bilan ishlash. Camtasia studio, Bandicam, FxCapture dasturlarida videodarslar tayyorlash. Prezi.com, visme.com, canva.com platformalarida taqdimotlar yaratish. Online test topshiriqlarini tayyorlash tizimlari (kahoot.com, quizizz.com,

quizalize.com, learningapps.org, puzzlemaker.discoveryeducation.com va boshqalar).

Videokonferensaloqa va uning xususiyatlari. Videokonferensaloqani tashkil etish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlar va ularning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari. Google Meet va Zoom dasturiy mahsulotlarini o'rnatish, registratsiyadan o'tish, videoaloqani rejalashtirish va o'tkazish.

Kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirish, dars samaradorligini oshirishga oid AKT vositalari va internet resurslari. Elektron pochtdan foydalanish. Mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan texnologiyalar. Ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) orqali kasbiy mahoratni oshirish. Kasbiy faoliyatni baholash bo'yicha dasturiy vositalardan maqsadli foydalanishning samarali yo'llari.

Tanlov fani

Mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, tinglovchilarning talab va ehtiyojlari asosida shakllantiriladi. Fan orqali o'qituvchilarining yangi kiritilgan, o'zlashtirilishi qiyin mavzular mazmuni va o'qitish metodlarini qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish ko'zda tutilgan.

Mustaqil ta'limni mazmunmi, uning tashkil etish va baholash

Mustaqil ta'limni mazmuni o'quv rejada keltirilgan modullar asosida olib boriladi. Har bir fanning mazmunidan kelib chiqib fan dasturida topshiriqlar kiritiladi. Mustaqil ta'lim uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasida baholanishi nazoratga olinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. – Toshkent: UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 1992. – 48 b.

2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.

3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.

4. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 15-oktyabr, O'RQ-641-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5049511>.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori: 2017-yil 28-iyul, PQ-3160-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4071203>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor

yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 32 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Shomahmudova R. Maxsus va inklyuziv ta’lim. – Toshkent: Chashma Print, 2011. – 214 b.

2. Аналитическая записка. Обзор законодательства и политики в области инклюзивного образования в Узбекистане. – Ташкент: ЮНИСЕФ, Детский Фонд Организации Объединенных Наций, 2018 г.

3. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.

4. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.

5. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: FAN, 2011. – 232 b.

6. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

7. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

8. Ishmuhammedov R. J, Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.

9. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. – Toshkent: UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. – 128 b.

10. Yevropa komissiyasi (2020): Ta’lim va o‘qitish 2020 dasturi, “O‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirish” mavzuiy ishchi guruhi, Limassoldagi Teng huquqli tahlil olish to‘g‘risidagi hisobot, Kipr, 17-21 oktyabr, 2010.

11. Samarali o‘qituvchilarni ishga yollash, ularni rivojlantirish va ushlab qolish – Yakuniy hisobot (2015): O‘qituvchilar ahamiyatga egadir. – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD).

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.

2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.

3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. avloniy.uz – A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rasmiy sayti.
6. utube.uz – “Ziyonet” tarmog‘i ta’lim videoportali.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. natlib.uz – O‘zbekiston milliy kutubxonasi sayti.
9. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
10. smartland.maktab.uz – “Smartland” platformasi.
11. educare.uzedu.uz – ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik, psixologik-pedagogik ma’lumotlar portali.
12. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
13. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
14. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.
15. defectolog.ru – defektologlar uchun sayt, Rossiya.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN
IXTISOSLASHTIRILGAN MAXSUS MAKTAB VA MAKTAB-
INTERNATLARI TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI
UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

TOSHKENT – 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

**Imkoniyati cheklangan bolalar ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-
internatlari texnologiya fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish
kursining namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar X. Malikova

Taqrizchilar G‘.Otamurodov *A.Avloniy nomidagi MTI “Raqamli
ta’lim texnologiyalarini va statistikani
takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot
bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi (PhD),
dotsent*

Z.N.Mamarajabova *Toshkent davlat pedagogika
universiteti, Surdopedagogika
kafedrasi professori,p.f.d.(DSc).*

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o‘qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi navbatdan tashqari 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy standartlari asosida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan maxsus ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, maxsus ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, pedagogning mas'uliyati va moslashuvchanligi, inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari, fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari, o'quvchilarning kompetensiyalarini xolisona baholash bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilarning o'z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy

tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi namunaviy o'quv dasturi, xalq ta'limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining kasbiy standartida belgilangan kompetensiyalar asosida shakllantirilgan tayanch o'quv rejasining tarkibi quyidagi 8 ta o'quv moduli mazmunini o'z ichiga oladi:

1. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. Maxsus ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik.
3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish.
4. Pedagogning mas'uliyati va moslashuvchanligi.
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari.
6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari.
7. Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari.
8. O'quvchilar kompetensiyalarini xolisona baholash.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursining maqsadi: ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish.

Kursning vazifasi: tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmunini keng tushuntirish, ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil etishning metodologik asoslarini singdirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar: ushbu talablar xalq ta'limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining kasb standarti asosida, tegishli yo'nalish bo'yicha imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi 36 soatni tashkil etadi. Malaka oshirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan kurs

tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi. O'quv modulining har 2 soatini o'zlashtirganlik uchun tinglovchiga 1 kredit ball beriladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab-internatlari texnologiya fani o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

1. Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish

O'zgalar fikrini hurmat qilish. O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralari. O'zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot shakllari. Ta'lim jarayoni sifatini oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'z hamkasblari bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalari yordamida aloqa o'rnatish va hamkorlik qilish. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish. O'zgalar bilan o'zaro hurmat asosiga qurilgan munosabatlar. O'zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda axloq normalari. Milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyatini, ijtimoiy adolatni himoya qilish.

2. Maxsus ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik

Raqamli texnologiyalar tushunchasi. Ta'limda raqamlashtirish. Ta'limning raqamli transformatsiyasi. Raqamli pedagogika. Raqamli didaktika. Raqamli darslik. Raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar – elektron doska, elektron jurnal, robototexnika.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga oid dasturiy mahsulotlar, internet resurslari va ma'lumotlar bazalari. Ta'lim muassasalarida multimedia ta'lim resurslaridan foydalanishning bugungi holati. Internet tarmog'idagi STEAM resurslaridan fanni o'qitishda foydalanish. Kasbiy faoliyatda sun'iy intellekt elementlaridan samarali foydalanish. IoT (internet of things) imkoniyatlari.

Bulutli texnologiyalar (Google, DropBox va boshqalar) va ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullari. Google Docs dasturiy mahsulotlari va ularning imkoniyatlari. Google ilovalari asosida matnli hujjatlar va elektron jadvallarni yaratish va birgalikda qayta ishlash. Google Drive va uning imkoniyatlari.

Pedagogik dasturiy vositalar. HotPotatoes, iSpring, Quizy maker dasturlari bilan ishlash. Camtasia studio, Bandicam, FCapture dasturlarida videodarslar tayyorlash. Prezi.com, visme.com, canva.com platformalarida taqdimotlar yaratish.

Online test topshiriqlarini tayyorlash tizimlari (kahoot.com, quizizz.com, quizalize.com, learningapps.org, puzzlemaker.discoveryeducation.com va boshqalar).

Videokonferensaloqa va uning xususiyatlari. Videokonferensaloqani tashkil etish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlar va ularning ta'lim jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlari. Google Meet va Zoom dasturiy mahsulotlarini o'rnatish, registratsiyadan o'tish, videoaloqani rejalashtirish va o'tkazish.

Kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirish hamda dars samaradorligini oshirishga oid AKT vositalari va internet resurslar. Elektron pochtdan foydalanish. Mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan texnologiyalar. Ommaviy ochiq online kurslar (MOOC) orqali kasbiy mahoratni oshirish. Kasbiy faoliyatni baholash bo'yicha dasturiy vositalardan maqsadli foydalanishning samarali yo'llari.

3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish

O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish. Uzluksiz qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining asosiy g'oyalari va tamoyillari. Butun hayot davomida ta'lim olish g'oyasini (lifelong learning). Formal va noformal ta'lim shakllari. Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari, usul va vositalari.

4. Pedagogning mas'uliyati va moslashuvchanligi

Mas'uliyat va moslashuvchanlik haqida tushuncha, maqsad va vazifalari. Kattalar ta'limi nazariyasi. Kichik va katta guruhlar psixologiyasiga oid qonuniyatlar. Shaxs rivojlanishining diagnostikasi va psixologik xususiyatlar. Shaxs rivojlanishi diagnostikasi usullari. Shaxslararo munosabatlar va ularning xususiyatlari. Intellektual rivojlanish psixodiagnostikasi. Ta'lim jarayonida moslashuvchanlik muammolarini hal qila olish, tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi va o'quvchilar o'rtasida uchrayotgan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish. Shaxs shakllanishi va intellektual rivojlanishini diagnostika qilishda ijtimoiy-psixologik metodlar.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid qonun hujjatlarini bilish va ularning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalari. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan tadbirlar. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilar dunyoqarashi va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish. Imkoniyati

cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari.

6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari

Qonunchilik normalari hamda ularga og'ishmay rioya qilish. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar. Kasbiy faoliyatga doir normativ-huquqiy hujjatlar. Bolalarning huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar. Ish yuritish bilan bog'liq huquqiy asoslar. Ish yuritishning qonunchilikka muvofiq olib borilishi. Mavjud tartibga muvofiq oldindan belgilangan muddatlarda ish yuritish. Ish yuritishda shaffoflik va ommaviylik tamoyillari. Ta'lim muassasasining hisobot, shu jumladan, moliyaviy hisobot masalalariga taalluqli qonunchilik bazasi.

7. Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari

Fandagi yangiliklar, kashfiyot va ixtirolar. Fanning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha dolzarb muammolar, yangiliklar, ilmiy izlanishlar, dissertatsiyalar, ilmiy, ilmiy-metodik maqolalar, anjumanlar materiallaridan fanni o'qitishda foydalanish.

Fanning yangi tahrirdagi DTS va DT, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari, ularning tahlili.

Fanni o'qitish bo'yicha ilg'or pedagogik tajribalar va ularni amalda qo'llash. Darslarda interfaol metodlardan foydalanish.

Ayrim murakkab mavzularni o'qitish samaradorligini oshirish omillari.

Fan bo'yicha ma'ruza, amaliyot, amaliy ishlar, trening, ochiq dars va boshqa mashg'ulotlarni tayyorlash, kuzatish va tahlil qilish.

Fanni o'qitishda elektron darsliklardan foydalanish.

Fan metod birlashmalari ishini samarali tashkil etish shakl va usullari.

Uzluksiz kasbiy rivojlanish, shu jumladan, mustaqil malaka oshirish va bilim olishning tashkiliy, uslubiy asoslari.

Fan bo'yicha o'qituvchilarning ilg'or tajribalarini aniqlash, tahlil qilish, o'rganish, yozish, umumlashtirish, ommalashtirishning zamonaviy texnologiyalari, shakl va usullari. Fanni o'qitishda to'plangan ilg'or tajribalar.

8. O'quvchilar kompetensiyalarini xolisona baholash

Baholash ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida. O'quvchilarning kasbiy kompetensiyasini baholash usullari va vositalari. O'quvchilarning kompetensiyalarini baholash natijalarini tahlil qilish. Tahlillar asosida tarbiyachi faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. – Toshkent: UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 1992. – 48 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
4. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 15-oktyabr, O'RQ-641-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5049511>.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.
6. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O'RQ-419-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi qarori: 2017-yil 28-iyul, PQ-3160-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4071203>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi

nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba].
– URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 32 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Shomahmudova R. Maxsus va inklyuziv ta’lim. – Toshkent: Chashma Print, 2011. – 214 b.

2. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.

3. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.

4. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta’limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: FAN, 2011. – 232 b.

5. Eshqobilov S. O‘quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo‘llanma – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.

6. Jumanazarov S. Ta’limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.

7. Ishmuhammedov R. J, Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.

8. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do‘stona muhit yaratish omili. – Toshkent: UNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. – 128 b.

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy sayti.
5. avloniy.uz – A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rasmiy sayti.
6. utube.uz – “Ziyonet” tarmog‘i ta’lim videoportali.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. natlib.uz – O‘zbekiston milliy kutubxonasi sayti.
9. emaktab.uz – O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining raqamli ta’lim platformasi.
10. smartland.maktab.uz – “Smartland” platformasi.
11. educare.uzedu.uz – ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik, psixologik-pedagogik ma’lumotlar portali.
12. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta’lim platformasi.
13. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
14. ziyonet.uz – axborot ta’lim portali.
15. yaklass.ru – maktab o‘quvchilari uchun raqamli ta’limiy resurs, Rossiya.
16. defectolog.ru – defektologlar uchun sayt, Rossiya.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O'RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**O'QITUVCHI-LOGOPEDLAR UCHUN UZLUKSIZ KASBIY
RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

TOSHKENT – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH
MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**O‘qituvchi-logopedlar uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining
namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar X. Malikova

Taqrizchilar G‘.Otamurodov *A.Avloniy nomidagi MTI “Raqamli
ta’lim texnologiyalarini va statistikani
takomillashtirish” ilmiy-tadqiqot
bo‘limi yetakchi ilmiy xodimi (PhD),
dotsent*

Z.N.Mamarajabova *Toshkent davlat pedagogika
universiteti, Surdopedagogika
kafedrası professori,p.f.d.(DSc).*

O‘qituvchi-logopedlar uchun uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrda navbatdan tashqari 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy standartlari asosida rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan maxsus ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida o'qituvchi-logopedlar malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishga qaratilgan.

Dastur mazmuni o'qituvchi-logopedning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik, o'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, o'qituvchi-logopedning mas'uliyati va moslashuvchanligi, inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari, ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari, o'qituvchi-logoped ishini tashkil etish metodikasi, o'qituvchi-logopedning kompetensiyalarini xolisona baholash bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni o'qituvchi-logopedning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, o'qituvchi-logopedlarning o'z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

O'qituvchi-logopedlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi namunaviy o'quv dasturi xalq ta'limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining

kasbiy standartida belgilangan kompetensiyalar asosida shakllantirilgan tayanch o'quv rejasining tarkibi quyidagi 8 ta o'quv moduli mazmunini o'z ichiga oladi:

1. O'qituvchi-logopedning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish.
2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik.
3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish.
4. O'qituvchi-logoped mas'uliyati va moslashuvchanligi.
5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari.
6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari.
7. O'qituvchi-logoped ishini tashkil etish metodikasi.
8. O'qituvchi-logopedning kompetensiyalarini xolisona baholash.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi: ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish.

Kursning vazifasi: tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmunini kent tushuntirish, ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil etishning metodologik asoslarini singdirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar: ushbu talablar xalq ta'limi tizimi rahbar, pedagog va mutaxassis xodimlarining kasb standarti asosida, tegishli yo'nalish bo'yicha o'qituvchi-logopedlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Malaka oshirish kursining davomiyligi 36 soatni tashkil etadi. Malaka oshirish toifasi bo'yicha ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan kurs tinglovchilariga davlat namunasidagi sertifikat beriladi. O'quv modulining har 2 soatini o'zlashtirganlik uchun tinglovchiga 1 kredit ball beriladi.

O'qituvchi-logopedlarning uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o'quv rejasidagi modullarining mazmuni

1. O'qituvchi-logopedning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish

O'zgalar fikrini hurmat qilish. O'zgalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarish qo'yish) muloqot maneralari. O'zgalarning huquqlari va hissiyotlarini hurmat qilishga hamda o'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot shakllari. Ta'lim jarayoni sifatini oshirish va ta'lim oluvchilarning o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida o'z hamkasblari bilan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining turli vositalari yordamida aloqa o'rnatish va hamkorlik qilish. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi turli pedagogik hamjamiyatlarda ishtirok etish. O'zgalar bilan o'zaro hurmat asosiga qurilgan munosabatlar. O'zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda axloq normalari. Milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qilish.

2. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik

Raqamli texnologiyalar tushunchasi. Ta'limda raqamlashtirish. Ta'limning raqamli transformatsiyasi. Raqamli pedagogika. Raqamli didaktika. Raqamli darslik. Raqamli texnologiyalarga asoslangan innovasiyalar – elektron doska, elektron jurnal, robototexnika.

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga oid dasturiy mahsullar, Internet resurslari va ma'lumotlar bazalari. Ta'lim muassasalarida multimedia ta'lim resurslaridan foydalanishning bugungi holati. Internet tarmog'idagi STEAM resurslaridan fanni o'qitishda foydalanish. Kasbiy faoliyatda sun'iy intellekt elementlaridan samarali foydalanish. IoT (internet of things) imkoniyatlari.

Bulutli texnologiyalar (Google, DropBox va boshqalar) va ularni ta'lim jarayonida qo'llash usullari. Google Docs dasturiy mahsulotlari va ularning imkoniyatlari. Google ilovalari asosida matnli hujjatlar va elektron jadvallarni yaratish va birgalikda qayta ishlash. Google Drive va uning imkoniyatlari.

Pedagogik dasturiy vositalar. HotPotatoes, iSpring, Quizy maker, dasturlari bilan ishlash. Camtasia studio, Bandicam, FxCapture dasturlarida videodarslar tayyorlash. Prezi.com, visme.com, canva.com platformalarida taqdimotlar yaratish. Onlayn test topshiriqlarini tayyorlash tizimlari (kahoot.com, quizizz.com, quizalize.com, learningapps.org, puzzlemaker.discoveryeducation.com va boshqalar).

Videokonferensaloqa va uning xususiyatlari. Videokonferensaloqani tashkil etish uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotlar va ularning ta'lim jarayonini

samarali tashkil etish imkoniyatlari. Google Meet va Zoom dasturiy mahsulotlarini o'rnatish, registratsiyadan o'tish, videoaloqani rejalashtirish va o'tkazish.

Kasbiy mahoratni shakllantirish va rivojlantirish hamda dars samaradorligini oshirishga oid AKT vositalari va internet resurslari. Elektron pochtdan foydalanish. Mustaqil ta'lim uchun mo'ljallangan texnologiyalar. Ommaviy ochiq online kurslar (MOOC) orqali kasbiy mahoratni oshirish. Kasbiy faoliyatni baholash bo'yicha dasturiy vositalardan maqsadli foydalanishning samarali yo'llari.

3. O'zini o'zi rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish

O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish. Uzluksiz qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimining asosiy g'oyalari va tamoyillari. Butun hayot davomida ta'lim olish g'oyasi (lifelong learning). Formal va noformal ta'lim shakllari. Kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari, usul va vositalari.

4. O'qituvchi-logoped mas'uliyati va moslashuvchanligi

Mas'uliyat va moslashuvchanlik haqida tushuncha, maqsad va vazifalari. Kattalar ta'limi nazariyasi. Kichik va katta guruhlar psixologiyasiga oid qonuniyatlar. Shaxs rivojlanishining diagnostikasi va psixologik xususiyatlar. Shaxs rivojlanishi diagnostikasi usullari. Shaxslararo munosabatlar va ularning xususiyatlari. Intellektual rivojlanish psixodiagnostikasi. Ta'lim jarayonida moslashuvchanlik muammolarini hal qila olish, tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida tarbiyachi va o'quvchilar o'rtasida uchrayotgan nizoli vaziyatlarni bartaraf etish. Shaxs shakllanishi va intellektual rivojlanishini diagnostika qilishda ijtimoiy-psixologik metodlar.

5. Inklyuziv ta'limni joriy etish masalalari

Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid qonun hujjatlarini bilish va ularning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalari. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan tadbirlar. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari orqali imkoniyati cheklangan o'quvchilarning dunyoqarashi va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish. Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari.

6. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va kasbiy faoliyatda foydalanish masalalari

Qonunchilik normalari hamda ularga og'ishmay rioya qilish. Ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar. Kasbiy faoliyatga doir normativ-huquqiy hujjatlar.

Bolalarning huquqlari to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjatlar. Ish yuritish bilan bog'liq huquqiy asoslar. Ish yuritishning qonunchilikka muvofiq olib borilishi. Mavjud tartibga muvofiq oldindan belgilangan muddatlarda ish yuritish. Ish yuritishda shaffoflik va ommaviylik tamoyillar. Ta'lim muassasaning hisobot, shu jumladan, moliyaviy hisobot masalalariga taalluqli qonunchilik bazasi.

7. O'qituvchi-logoped ishini tashkil etish metodikasi

Logoped ishining maqsadi va vazifalari. Logopedik shoxobcha nizomi. Logopediya fanining maqsadi, vazifalari. Nutq organlarining tuzilishi. Nutqning hosil bo'lish mexanizmi. Dislaliya va uni bartaraf etish metodikasi. Rinolaliya. Rinolaliyani korrektsiyalash bo'yicha bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar. Dizatriya. Dizatriyani bartaraf etishda olib boriladigan korreksion-logopedik ishlar. Ovoz buzilishlari va ularni bartaraf qilish. Alaliya. Alaliya ko'rinishidagi nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar. Afaziya. Afaziya ko'rinishidagi nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishlar. Nutq tempining buzilishida olib boriladigan logopedik ishlar. Duduqlanish. Duduqlanuvchi bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlar. Yozma nutq buzilishlarini bartaraf etish yo'llari.

8. O'qituvchi-logopedning kompetensiyalarini xolisona baholash

Baholash ta'lim jarayonining ajralmas qismi sifatida. O'qituvchi-logopedning kasbiy kompetensiyasini baholash usullari va vositalari. O'qituvchi-logopedlarning kompetensiyalarini baholash natijalarini tahlil qilish. Tahlillar asosida tarbiyachi faoliyatiga o'zgartirishlar kiritish.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. Bola huquqlari to'g'risida konvensiya. – Toshkent: UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 1992. – 48 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi qonuni: 2020-yil 15-oktyabr, O'RQ-641-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5049511>.
5. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O'RQ-139-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-1297315>.

6. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni: 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-3088008>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori: 2017-yil 28-iyul, PQ-3160-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4071203>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

3. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 32 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Shomahmudova R. Maxsus va inklyuziv ta'lim. – Toshkent: Chashma Print, 2011. – 214 b.
2. Musurmonova O., Ibragimov X., Jamoldinov O. Umumiy pedagogika. Darslik. I qism. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – 376 b.
3. Mavlonova R. A. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.
4. Begimkulov U. Sh. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Toshkent: FAN, 2011. – 232 b.
5. Eshqobilov S. O'quv-tarbiyaviy ishlarni boshqarishda axborot tizimlaridan foydalanish. Metodik qo'llanma – Toshkent: A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti, 2022. – 74 b.
6. Jumanazarov S. Ta'limda raqamli texnologiyalar. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2023. – 46 b.
7. Ishmuhammedov R. J, Yuldashev M. A. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.
8. Tolipova J. O. Pedagogik texnologiyalar – do'stona muhit yaratish omili. – Toshkent: UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi, 2005. – 128 b.

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
5. avloniy.uz – A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rasmiy sayti.
6. utube.uz – “Ziyonet” tarmog'i ta'lim videoportali.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. natlib.uz – O'zbekiston milliy kutubxonasi sayti.
9. emaktab.uz – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining raqamli ta'lim platformasi.
10. smartland.maktab.uz – “Smartland” platformasi.
11. educare.uzedu.uz – ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik, psixologik-pedagogik ma'lumotlar portali.
12. onlinedu.uz – uzluksiz kasbiy ta'lim platformasi.
13. stesting.uz – xalqaro tadqiqotlarga tayyorlash sinov platformasi.
14. ziyonet.uz – axborot ta'lim portali.
15. yaklass.ru – maktab o'quvchilari uchun raqamli ta'limiy resurs, Rossiya.
16. defectolog.ru – defektologlar uchun sayt, Rossiya.

Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi
70-XDFU-son buyrug'i bilan
tasdiqlangan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY
RIVOJLANTIRISH VA YANGI METODIKALARGA
O'RGATISH MILLIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**UMUMIY O'RTA TA'LIM TASHKILOTI PSIXOLOGLARI
UCHUN TABAQALASHTIRILGAN UZLUKSIZ KASBIY
RIVOJLANTIRISH KURSINING**

NAMUNAVIY O'QUV DASTURI

(Tajriba-sinov tariqasida)

TOSHKENT – 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**A. AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGLARNI KASBIY RIVOJLANTIRISH
VA YANGI METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY-TADQIQOT
INSTITUTI**

**Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti psixologlari uchun tabaqalashtirilgan uzluksiz
kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi**

Tuzuvchilar: A. Ismailov, U. Qodirov, K. Jo‘raboyev, M. Abdullayeva

Taqrizchilar:	Islam Hassan Mahmoud Hassan Elhadary	<i>A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti rektorining xorijiy maslahatchisi</i>
	Shamshetova Anjim Karamaddinovna	<i>O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, psixol.f.d.(DSc)</i>
	Oqilova Kamola Sa’dulloyevna	<i>Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi katta o‘qituvchisi,(PhD)</i>

Umumiy o‘rta ta’lim tashkiloti psixologlari uchun tabaqalashtirilgan uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining namunaviy o‘quv dasturi A. Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti Kengashining 2023-yil 6-dekabrdagi 4/1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqqa tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu namunaviy o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligidagi 2023-yil 23-avgust kuni kengaytirilgan videoselektor yig'ilish qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni, 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4963-son qarori va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-iyuldagi "O'quvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 577-son qarori, 2022-yil 17-yanvardagi "Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 25-son qarorlarida belgilangan vazifalar hamda Xalq ta'limi vazirining 2022-yil 20-apreldagi "Davlat ta'lim talablarini tasdiqlash to'g'risida"gi 121-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, umumiy o'rta ta'lim tashkiloti psixologlarining kasbiy standartlari asosida psixolog kadrlarning malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo'li bilan umumiy o'rta ta'lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari psixolog kadrlari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2023-yil 15-noyabrdagi 540-son buyrug'i asosida o'tkazilgan diagnostik test natijalari ko'ra, o'quv fanlarining nazariyasi va amaliyoti uyg'unligini ta'minlash, ta'limdagi ilg'or yutuqlarni o'rganish, inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabat, o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ta'limda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish: 4K – tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash va kommunikativlik ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

O'quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari psixolog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan umumiy malaka talablari asosida shakllantirilgan bo'lib, psixologlarning o'z kasbiy faoliyatiga doir

zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg'or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Umumiy o'rta ta'lim tashkiloti psixologlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi namunaviy o'quv dasturi, umumiy o'rta ta'lim tashkiloti psixologlari kasbiy standartida belgilangan kompetensiyalar va diagnostik test natijalari asosida IV tabaqada shakllantirilgan tayanch o'quv rejasining 4 ta blok tarkibidagi quyidagi 12 ta o'quv moduli mazmunini o'z ichiga oladi:

I. Ta'lim jarayonini psixologik-pedagogik ta'minlash

1.1. Psixologning psixologik-pedagogik faoliyatini rejalashtirish.

1.2. Ta'lim dasturlarini amaliyotga tatbiq etishda psixologik-pedagogik va metodik ta'minot.

1.3. Ta'lim jarayoni ishtirokchilariga psixologik maslahat berish.

1.4. Bolalar va ta'lim oluvchilar bilan olib boriladigan ijtimoiy-psixologik va rivojlantiruvchi ishlar.

1.5. Kasbga yo'naltirish ta'lim oluvchilarga kasbiy o'z o'zini anglashda ko'maklashish.

II. Nogironligi bo'lgan, alohida saqlash sharoitlariga muhtoj shaxslar va iqtidorli ta'lim oluvchilarga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish

2.1. Bolalar va ta'lim oluvchilarni psixologik tashxislash.

2.2. Ta'lim oluvchilarning rivojlanishida xulq-atvorlaridagi buzilish va og'ishlarning psixologik profilaktikasi.

2.3. Ta'lim oluvchilarning xulq-atvorlari va rivojlanishini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash.

2.4. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari psixologik ta'lim-tarbiyasining psixologik jihatlari.

2.5. Inklyuziv ta'lim asoslari.

III. Ta'lim muhiti qulayligi va xavfsizligining psixologik baholash.

3.1. Ta'lim muhiti qulayligi va xavfsizligini psixologik baholash.

IV. Kasbiy rivojlanish

4.1. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish.

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursning maqsadi: ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni zamonaviy yondashuvlar, malaka talablari asosida muntazam yangilash, ularning kasbiy faoliyatga doir kompetentligini rivojlantirish.

Kursning vazifalari: tinglovchilarga jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mazmuni kengroq tushuntirish, ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli va samarali tashkil etishning metodologik asoslarini singdirish.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar: ushbu talablar umumiy o'rta ta'lim tashkiloti pedagog-psixologining kasb standarti asosida, tegishli yo'nalish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim tashkiloti psixolog kadrlarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo'yiladigan malaka talablari bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining hajmi **144 soatni** tashkil etadi. Mazkur soatlar har bir tabaqa uchun **3 yillik** muddat kesimida quyidagicha taqsimlanadi.

I tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari yuqori psixolog kadrlar uchun 3 yil davomida 108 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

II tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari yaxshi bo'lgan psixolog kadrlar uchun 72 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish.

III tabaqa ta'lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko'rsatkichlari qoniqarli psixolog kadrlar uchun 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, 72 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish hamda 36 soat mustaqil ta'lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta'lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralmagan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

IV tabaqa ta’lim dasturi – kasbiy mahorati va bilim ko’rsatkichlari past bo’lgan psixolog kadrlar uchun uchun 108 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish va 36 soat mustaqil ta’lim shaklida tashkil etiladi. Jumladan:

birinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

ikkinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish;

uchinchi yil – 12 soat mustaqil ta’lim, 36 soat ishlab chiqarishdan ajralgan holda malaka oshirish.

Umumiy o’rta ta’lim tashkiloti psixologlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursi o’quv rejasidagi modullarining mazmuni

I. TA’LIM JARAYONINI PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK TA’MINLASH

1.1. Psixologning psixologik-pedagogik faoliyatini rejalashtirish

O’quv dasturlari va davlat ta’lim standartlari, normativ-huquqiy hujjatlar va ulardan psixolog faoliyatini rejalashtirishda foydalanish (ta’lim tizimining tuzilishi va funksiyalari, maqsadlari, huquqiy asoslari, ta’lim muassasalarining tashkil etilishi va faoliyati). Biologik, madaniy va ijtimoiy omillarning ta’lim oluvchilarning bilim va ta’lim xususiyatlariga ta’siri.

Kognitiv rivojlanish xususiyatlari. Ota-onalar (ularni almashtiradigan shaxslar) va psixologning ta’lim oluvchilarning to’liq rivojlanishiga ta’sir qiluvchi yondashuvi o’rtasidagi farqlar.

Ta’lim jarayonini, shuningdek, qaror qabul qilish, rejalashtirish va monitoringdagi ma’lumotlarni baholash va qayta ishlash usullari. Bolalar va ularning ota-onalariga (ularning o’rnini bosuvchi shaxslarga) psixologik xizmat ko’rsatish uchun zarur bo’lgan talablar doirasida yosh psixologiyasi asoslari.

Bolalarni jamiyatdagi hayotga tayyorlash uchun psixologik xizmatlar ko’rsatishning turli usullari (o’qitish, maslahat berish, o’qitish) va ularni rejalashtirishda qo’llash. Belgilangan psixologik va pedagogik maqsadlarga erishish uchun turli rejalarni tayyorlash tuzilmalari va tamoyillari.

Bolalar va ularning ota-onalari (ularning o’rnini bosuvchi shaxslar) bilan ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishni samarali rejalashtirish uchun umumiy psixologiya tamoyillari.

Psixologning kasbiy faoliyatini rejalashtirish uchun AKT asoslari. Ta'lim oluvchilarning ijtimoiylashuv ko'nikmalari va psixologik salomatligini baholash usullari. Bolalar va o'smirlar psixologiyasi asoslari, kognitiv va ta'limiy baholash usullari, psixometrik nazariya asoslari.

Kuchli taraflar va ehtiyojlarni aniqlash, ta'lim oluvchilar, ularning oilalari va ta'lim tashkiloti muammolarini hujjatlashtirish imkonini beruvchi turli manbalardan olingan ma'lumotlarni qayta ishlash usullari.

Dalillarga asoslangan ta'lim, xulq-atvor va ijtimoiy strategiyalar. Bolalarni himoya qilish asoslari, bolalarga nisbatan zo'ravonlik, qo'pol munosabat, beparvolik va ekspluatatsiya qilish belgilari va alomatlari, bolalarni himoya qilish bilan bog'liq muammolarni aniqlash asoslari va tegishli organlarga xabar berish, bolalarni himoya qilish muammolari/holatlari bilan shug'ullanadigan ijtimoiy xizmat va bolalarni himoya qilish xizmati xodimlarining majburiyatlarini bilish.

1.2. Ta'lim dasturlarini amaliyotga tatbiq etishda psixologik-pedagogik va metodik ta'minot

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonunchiligi. Ta'lim oluvchilar oilasining xususiyatlari, ta'lim oluvchilar oilasining kuchli tomonlari va ehtiyojlari, oilaviy madaniyat va bolalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi oila va ta'lim muassasaning o'zaro ta'siri.

Ota-onalar (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan samarali muloqot qilish usullari va ularni ta'lim tashkilotidagi faoliyatni amalga oshirishga jalb qilish usullari. Bolalar va o'smirlarning psixologik va tarbiyaviy ehtiyojlari, ularning o'rganish qobiliyatiga ta'siri, bolalar va o'smirlarning motivatsiyasi, ijtimoiy, xulq-atvori, psixologik xususiyatlari.

Ota-onalarning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning) ta'lim oluvchilarga nisbatan huquqlari. Barcha ta'lim oluvchilar uchun xavfsiz ta'lim sharoitlarini ta'minlash uchun ta'lim tashkilotining huquq va majburiyatlari.

Psixologik-pedagogik fan metodologiyasi, yosh va pedagogik psixologiya asoslari, pedagogika va psixologiyada qo'llanadigan usullar. Umumiy ta'limning barcha darajalarida ta'lim oluvchilar tomonidan asosiy umumiy ta'lim dasturini o'zlashtirishning shaxsiy va meta-fan natijalarini tashkil etish hamda monitoringining uslubiy asoslari.

Psixologik tadqiqotlarni tashkil etish nazariyasi va usullari. Tadqiqot natijalarini tekshirish usullari. Ma'lumotlarni talqin qilish usullari va psixolog ishining natijalarini taqdim etish.

Asosiy umumiy ta'lim dasturlarini tashkiliy-uslubiy ta'minlash usullari. Kasbiy etika, shuningdek, maxfiylik tamoyillari va unga rioya etmaslik chegaralari.

Ta'lim muassasalarida bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlari aniqlanganda harakatlar algoritmi. Bola huquqlari va bolalar ta'limi sohasidagi xalqaro normalar va shartnomalar.

Kasbiy faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar. Davlat ta'lim standartlari. Asosiy umumiy ta'lim dasturlarini tashkiliy-uslubiy ta'minlash usullari. Ta'lim tashkilotida ish yuritish bo'yicha ko'rsatmalar.

1.3. Ta'lim jarayoni ishtirokchilariga psixologik maslahat berish

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonunchiligi. Zamonaviy ta'lim nazariyalari, o'qitish va tarbiya texnologiyalari va vositalari, ulardan foydalanish chegaralari va imkoniyatlari. Maslahatning zamonaviy nazariyalari va usullari.

Ta'lim oluvchilarning rivojlanishining yosh normalariga muvofiq hamkorlikdagi va individual faoliyatini tashkil etish usullari. Maslahat ishlarini tashkil etish va o'tkazish uchun axloqiy me'yorlar.

Ta'lim jarayoni subyektlarini idoralararo tashkilotlar (resurs markazlari) faoliyatining tarmoq psixologik-pedagogik, tibbiy va ijtimoiy yordam olish usullari mazmuni to'g'risida xabardor qilish.

Bola huquqlari va bolalar ta'limi sohasidagi xalqaro normalar va shartnomalar. Ta'lim faoliyatini boshqarish uchun zarur bo'lgan amaliy psixologiya asoslari, shu jumladan, yosh va kasbiy rivojlanish masalalari, shaxs va guruhlar psixologiyasi.

Xavf omillari va ularning oldini olish usullari, shuningdek, nizolarning oldini olish. Ta'lim oluvchilarning o'quv natijalarini, ijtimoiy rivojlanishi va psixologik salomatligini, maslahatlar va boshqa faoliyatlarni, yaxshilashga yordam beradigan omillar.

Ta'lim tashkilotida ijobiy va qulay psixologik iqlimni ta'minlashga yordam beradigan omillar. Maslahat usullari va turlari. Kasbiy standartlar, sohaga oid me'yoriy hujjatlar va ulardan ishlarni bajarishda foydalanish, maktab psixologining lavozim majburiyatlari.

1.4. Bolalar va ta'lim oluvchilar bilan olib boriladigan ijtimoiy-psixologik va rivojlantiruvchi ishlar

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi qonunchiligi. Ta'lim tashkiloti sharoitida xavf omillarini kamaytirish va ta'lim oluvchilarning psixologik farovonligini oshirish usullari.

Ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va o'z vaqtida hal etish, ta'lim sifatini, ta'lim oluvchilarning ijtimoiy va psixologik farovonligini, ta'lim tashkilotidagi

psixologik iqlim va xavfsizlikni oshirishga qaratilgan psixologik yordam ko'rsatish usullari.

Ta'lim oluvchilarda ta'lim va ularning ijtimoiy va (yoki) psixologik farovonligi bilan bog'liq ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va o'z vaqtida hal qilish usullari. Ta'lim oluvchilarning ta'lim ehtiyojlari, ta'lim tashkilotining xususiyatlari, hisobot talablari, tashkilotning ichki siyosati, sohaga oid me'yoriy hujjatlar, ta'lim tashkilotining resurslari.

Bolalarning tipik va atipik rivojlanishiga misollar, rivojlanishdagi nuqsonlarining turlari (ta'lim olishga qobiliyati yo'qligi, disleksiya, bajarish ko'nikmasi bilan bog'liq muammolar, Daun sindromi, autistik spektr holatlari, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik sindromi, harakatlardagi nomuvofiqlik, rivojlanishning kechikishi).

Nogironligi bo'lgan bolalarning ta'lim, psixologik, ijtimoiy va kasbiy ehtiyojlarini qondirish uslublari va baholash usullari. Ta'lim oluvchilarning individual farqlari, qobiliyatlari va boshqa xususiyatlari, ularning rivojlanish va ta'lim olishga ta'siri.

Bolaning psixologik rivojlanishiga, ta'sir qiluvchi omillar (din, madaniyat, urf-odatlar, millat, ijtimoiy-iqtisodiy holat), shuningdek, qo'pol munosabat va beparvolik belgilari. Ta'lim oluvchilar va ota-onalarga (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga) kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahat berish usullari.

Ijtimoiy-ruhiy va rivojlantiruvchi ishlarining zamonaviy nazariyalari, yondashuvlari va amaliyoti. Ijtimoiy-ruhiy ishlarini olib borish uchun ta'lim oluvchilarga va ularning ota-onalariga (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga), shu jumladan, alohida saqlash sharoitlariga muhtoj bo'lgan ta'lim oluvchilarga psixologik ta'sir ko'rsatishning maxsus vositalari.

Turli toifadagi ta'lim oluvchilarning, shu jumladan, maxsus ta'limiy ehtiyojlarga muhtoj bo'lganlarning rivojlanish qonuniyatlari. Ijtimoiy-ruhiy va rivojlantiruvchi masalalarini hal qilishga imkon beradigan standart usullar va texnologiyalar, shu jumladan, boshqa mutaxassislar (defektolog-pedagog, logoped-pedagog) bilan hamkorlikda.

Guruh dinamikasining qonuniyatlari. Guruh ijtimoiy-ruhiy va rivojlantiruvchi ishlarining usullari va texnikasi. Rivojlantiruvchi ishlarining samaradorligini baholash va takomillashtirish usul va uslublari.

Bola huquqlari va bolalar ta'limi sohasidagi xalqaro normalar va shartnomalar. Biologik, madaniy va ijtimoiy omillarning ta'lim oluvchilarning kognitiv va akademik ko'rsatkichlariga ta'siri. Kognitiv va akademik ko'nikmalarni rivojlantirish usullari, shu jumladan, maxsus ta'limiy ehtiyojlarga muhtoj bo'lgan ta'lim oluvchilarda.

1.5. Kasbga yo'naltirish, ta'lim oluvchilarga kasbiy o'z o'zini anglashda ko'maklashish

O'zbekiston Respublikasining ta'lim va xodimlarni boshqarish sohasidagi qonunchiligi. Ta'lim oluvchilar va ota-onalarga (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga) kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahat berish usullari.

Pedagogik psixologiya nazariyalari va usullari. Boshlang'ich professional ta'lim, o'rta maxsus ta'lim, o'rta professional ta'lim, oliy ta'lim, shuningdek, kasbiy tayyorgarlik kurslari sohasida xizmat ko'rsatadigan shahar (aholi punkti) ta'lim tashkilotlari ro'yxati.

Ta'lim oluvchilarda mehnatga bo'lgan ongli munosabatni rivojlantirish, ularning imkoniyatlari, qobiliyatlariga muvofiq va mehnat bozori talablarini hisobga olgan holda faoliyat sohasini tanlash erkinligi sharoitida kasbiy o'zini o'zi anglash shakllari va uslubiy asoslari.

Bandligini ta'minlashda qiyinchiliklarini osongina bashorat qila oladigan ta'lim oluvchilarining ayrim guruhlarini qo'llab-quvvatlash: alohida saqlash sharoitlariga muhtoj bo'lgan ta'lim oluvchilar, noqobil oila farzandlari va boshqalar.

II. NOGIRONLIGI BO'LGAN, ALOHIDA SAQLASH SHAROITLARIGA MUHTOJ SHAXSLAR VA IQTIDORLI TA'LIM OLUVCHILARGA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK YORDAM KO'RSATISH

2.1. Bolalar va ta'lim oluvchilarni psixologik tashxislash

O'zbekiston Respublikasining malaka, shuningdek, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining kasbiy mahoratini oshirish sohasidagi qonunchiligi. Bolalarning tipik va atipik rivojlanishiga misollar va rivojlanishdagi nuqsonlarining turlari (ta'lim olishga qobiliyati yo'qligi, disleksiya, bajarish ko'nikmasi bilan bog'liq muammolar, Daun sindromi, autistik spektr holatlari, diqqat yetishmasligi va giperaktivlik, dispraksiya, rivojlanishning og'ir va chuqur kechikishi).

Psixodiagnostika nazariyasi, metodologiyasi, psixodiagnostik usullarning tasnifi, ularning imkoniyatlari va cheklovlari, ularga qo'yiladigan talablar. Ta'lim oluvchining psixologik-pedagogik xaritasi va o'qitilayotgan jamoaning tashxis ma'lumotlaridan kelib chiqadigan tashxisdagi muammolarini hal qilishga imkon beradigan zamonaviy usul va texnologiyalar.

Axborotni yig'ish, birlamchi qayta ishlash usullari, psixologik kuzatuvlar va tashxis natijalari. Psixologik tashxis natijalarini matematik qayta ishlash usullari. Muammolarni hal qilishning modellari va tuzilmalari va ularning bosqichlari.

Ekologiya asoslari va atrof-muhit omillarining bola va oila farovonligiga ta'siri. Psixologik tadqiqotlarni tashkil etish nazariyasi va usullari. Tadqiqot natijalarini tekshirish usullari. Psixodiagnostik tekshiruv natijalarini talqin qilish va taqdim etish usullari. Bola huquqlari va bolalar ta'limi sohasidagi xalqaro normalar va shartnomalar.

2.2. Ta'lim oluvchilarning rivojlanishida xulq-atvorlaridagi buzilish va og'ishlarning psixologik profilaktikasi

O'zbekiston Respublikasining malaka, shuningdek, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining kasbiy mahoratini oshirish sohasidagi qonunchiligi. Bolalar, o'smirlar va yoshlarni har xil turdagi ta'lim tashkilotlari sharoitlariga moslashtirish usullari. Jamoada qulay ijtimoiy-psixologik iqlimni shakllantirish va saqlashning zamonaviy nazariyalari.

Ijtimoiy-psixologik iqlimni sozlash usullari, nizolarni hal qilish. Mutaxassislarining "kasbiy zo'riqish"ining oldini olish nazariyalari va usullari. Ta'lim oluvchilarning ortiqcha ruhiy zo'riqishining oldini olish va olib tashlashning namunaviy holatlari va usullari. Kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuv nazariyalari, ularning samaradorligini ta'minlash usullari va uslublari.

Bolalar, oilalar, maktablar va jamoalarning xilma-xilligi bilan bog'liq tamoyillar va tadqiqotlar, shu jumladan, bola rivojlanishi, din, madaniyat va madaniy o'ziga xoslik, irq, ijtimoiy-iqtisodiy holat va boshqa o'zgaruvchilar bilan bog'liq omillar. Bola huquqlari va bolalar ta'limi sohasidagi xalqaro normalar va shartnomalar.

2.3. Ta'lim oluvchilarning xulq-atvorlari va rivojlanishini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash

Ijtimoiy-ruhiy ish va bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlashning zamonaviy nazariyalari, yo'nalishlari va amaliyoti. Xulq-atvorini ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash usullari, ta'lim oluvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda psixologik-pedagogik usullar.

Har bir bolaning shaxsini rivojlantirish uchun maqbul psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratish asosida aqliy rivojlanishida nuqsoni (aqliy, hissiy, motivatsion, xulq-atvor, idrok, harakat va boshqalar) bor bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash.

Bolalar va o'smirlarning tipik va atipik rivojlanishi. Bolalar va o'smirlar psixologiyasi. Inklyuziv ta'lim tamoyillari va standartlari. Xulq-atvorga salbiy tibbiy, ijtimoiy, oilaviy va boshqa atrof-muhit ta'siri turlari (ovqat hazm qilish buzilishi, o'spirinlikdagi homiladorlik, o'z joniga qasd qilishga urinishlar).

Intervyu usullari. Maslahat berish texnikasi. Ijobiy ish natijalarini birlashtirish va mustahkamlash uchun ijtimoiy-ruhiy dasturlarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash samaradorligini tekshirish usullari.

Guruh dinamikasining bosqichlari, bolalarni guruhda ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash usul va uslublari. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash jarayonida shaxsiy faollikni oshirish usul va uslublari. Ta'lim oluvchilarni ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash samaradorligini aniqlash va nazorat qilish usul va uslublari.

Bolalar uchun tashxis va ijtimoiy-ruhiy rivojlanish masalalarini hal qilishning standart usullari va texnologiyalari. O'smirlarda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar shakllari va belgilari, bolalarda bu xatti-harakatlarni ijtimoiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash shakl va belgilari.

Biologik, madaniy, ijtimoiy va vaziyat omillarining ta'lim oluvchining xulq-atvori, ta'lim olishi va ruhiy salomatligiga ta'siri. Ta'lim oluvchilarning psixologik salomatligini yaxshilashga ko'maklashish usullari.

2.4. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari ta'lim-tarbiyasining psixologik jihatlari

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shuningdek, boshqaruvga oid soha hujjatlari. Ta'lim oluvchilarning ehtiyojlari va shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim tashkilotidagi psixologik ta'limning vazifalari va tamoyillari.

Ta'lim oluvchilarning individual farqlari, qobiliyatlari va boshqa xususiyatlari. Ta'lim muassasalaridagi tarafkashlik va stereotiplarning ta'lim sifatiga ta'siri. Ta'lim oluvchilarning ta'limiy ehtiyojlari va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olgan psixologik ta'limning shakllari va yo'nalishlari, texnikasi va usullari. Pedagogika asoslari, turli toifadagi ta'lim oluvchilar bilan ishlaydigan o'quv jarayonining katta yoshli ishtirokchilarini o'qitish shakllari va usullari.

2.5. Inklyuziv ta'lim asoslari

Inklyuziv ta'lim bo'yicha xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar, ularning mazmun va mohiyati. Inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish, qabul qilish, nazorat qilish va boshqarish tartibi hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish.

Inklyuziv ta'limni joriy qilish bosqichlari. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning bosqichma-bosqich amalga oshirish jarayonlari hamda xorijiy va milliy tajriba. Inklyuziv ta'limni tashkil etishda yuzaga keladigan muammo va yechimlar.

III. TA'LIM MUHITI QULAYLIGI VA XAVFSIZLIGINING PSIXOLOGIK EKSPERTIZASI (BAHOLASH)

3.1. Ta'lim muhiti qulayligi va xavfsizligini psixologik baholash

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, shuningdek, xodimlarni boshqarishga oid soha hujjatlari. Bolalar va yosh psixologiyasi. Bolaning ta'lim olishida oilaning ahamiyati. Ta'lim oluvchilarning psixologik farovonligini oshirishga qaratilgan oilalar va pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik va sheriklikni rivojlantirish usullari.

Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlashni rejalashtirish va nazorat usullari. Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlash uchun ma'lumotlarni yig'ish usullari. Xavfsiz ta'lim muhitini ta'minlash uchun ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash natijalarini umumlashtirish usullari.

Ta'lim oluvchilarning psixologik salomatligini yaxshilashga yordam beradigan omillar. Salomatligida nuqsoni bo'lgan ta'lim oluvchilarning psixologik salomatligi sohasidagi dolzarb resurslar va xizmatlar.

Pedagogik psixologiya nazariya va usullari. O'quv jarayonini tashkil etish tarixi va nazariyasi. O'quv jarayoni natijalari va mazmunining sifatini baholashni nazorat qilishda qo'llanadigan psixologik-pedagogik tashxis usullari.

Ta'lim oluvchilarning yosh fiziologiya va gigiyenasi asoslari, ularning o'quv jarayonida xavfsizligini ta'minlash. Ta'lim muhitining parametrlarini, shu jumladan, ta'lim muhitining qulayligi va psixologik xavfsizligini baholashning psixologik usullari.

IV. KASBIY RIVOJLANISH

4.1. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish

O'z-o'zini baholash va psixologning kasbiy faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash jarayoni. O'zini kasbiy rivojlantirishni rejalashtirish. Axborot va kompyuter texnologiyalari. Chet tili (o'qitiladigan fan doirasida). Hayot davomida ta'lim olish va uzluksiz kasbiy rivojlanish zarurati. "Kasbiy zo'riqish"ning oldini olish usullari. Nutq madaniyati.

Mustaqil ta'limning mazmuni, uni tashkil etish va baholash

Mustaqil ta'limning mazmuni o'quv rejada keltirilgan modullar asosida olib boriladi. Har bir fanning mazmunidan kelib chiqib, fan dasturida topshiriqlar kiritiladi. Mustaqil ta'lim uzluksiz kasbiy ta'lim elektron platformasida baholanishi nazoratga olinadi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O’RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to’g’risida”gi qarori: 2017-yil 28-iyul, PQ-3160-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4071203>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni: 2019-yil 29-aprel, PF-5712-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4312785>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi farmoni: 2022-yil 28-yanvar, PF-60-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo’yicha milliy dasturni tasdiqlash to’g’risida”gi farmoni: 2022-yil 11-may, PF-134-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-6008663>.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi qarori: 2019-yil 13-fevral, PQ-4190-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4201081>.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo’llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori: 2021-yil 25-yanvar, PQ-4963-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5239538>.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quv asbob-uskunolari va anjomlarining xavfsizligi to’g’risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2017-yil 2-iyun, 345-son [Elektron manba]. – URL: <https://www.lex.uz/docs/-3231533>.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘quvchilarni psixologik-pedagogik qo’llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi qarori: 2019-yil 12-iyul, 577-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-4417140>.

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining 10–11-sinflari o‘quvchilarini kasb-hunarga tayyorlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori: 2021-yil 30-dekabr, 792-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/docs/-5800745>.

12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori: 2022-yil 17-yanvar, 25-son [Elektron manba]. – URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5828765>.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

1. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.

III. Asosiy adabiyotlar

1. Abdurahmonov F. M. Kasbiy stress, emotsional so‘nish holatlari profilaktikasi va korreksiyasiga qaratilgan korreksion dastur. – Toshkent:... 2022.

2. Baratov Sh. Ta’limda psixologik xizmat asoslari. Monografiya. – Toshkent: Ma’naviyat”, 1999. – 302 b.

3. Hojiboyev I. Umumiy psixodiagnostika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro: 2023. – 235 bet.

4. Ismailov A., Daminov H., Karimov N., Ahmedov X., Tog‘ayeva G., Qosimova Z. O‘quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo‘ljallangan, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari, soha mutaxassislari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan test topshiriqlari to‘plami. Axborotnoma 1-son. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 22 b.

5. Ishmuhammedov R. J., Yuldashev M. A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2013. – 96 b.

6. Ishmuhammedov R. O‘quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uslubiyati. – Toshkent: RBIMM, 2008. – 68 b.

7. Jabborov X. X. O‘qituvchining kasbiy faoliyatga psixologik tayyorligi va kasbiy stress, kasbiy (emotsional so‘nish) holatlari diagnostika test to‘plami. – Toshkent: 2022.

8. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 172 b.

9. Nishonova Z. T. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. Oliy pedagogik o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: 2013. – 364 b.
10. Nishonova Z. T., Abdullayeva D., Baykunosova G. O'smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: ... 2015.
11. Qodirov U. Yoshlarni destruktiv ta'sirlardan himoyalashning psixologik jihatlari. Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2013. – 236 b.
12. Qodirov U., Jumayev U. Kasb psixologiyasi. – Toshkent: 2022. – 301 b.
13. Qodirov B. R. Iqtidorli bolalarning birlamchi tanlovi metodikalari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2014. – 75 b.
14. Shoumarov G'. B., Qodirov U. D., Hojiboyev I. I. Oilaga psixologik yordam ko'rsatish asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2014. – 234 b.
15. Shoumarov G', Saidov B., Qodirov U., Sog'inov N. O'zbekistonda suitsid muammolari va ularning oldini olish yo'llari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2022.

IV. Elektron manbalar

1. gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati portali.
2. my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. uzedu.uz – Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining rasmiy sayti.
5. infocom.uz – “Raqamli iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali sayti.
6. uza.uz – O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
7. kitob.uz – Respublika bolalar kutubxonasi sayti.
8. ziyonet.uz – axborot ta'lim portali.
12. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
15. educare.uzedu.uz – ijtimoiy-psixologik, tibbiy-psixologik, psixologik-pedagogik ma'lumotlar portali.